

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKUL'TETI
EKOLOGIYA KAFEDRASI**

**JO'RAYEVA SHALOLANING
TOSHQO'RG'ON QISHLOG'I EKOLOGIYASI mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Namangan – 2016

MUNDARIJA

KIRISH:	3
I-BOB: QISHLOQ JOYLARI VA UNI O'RGANISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	8
1.1. Qishloqlar yuzaga kelishining tarixiy-geografik jihatlari.....	8
1.2. Qishloq joylarni o'rganishda ijtimoiy ekologik xususiyatlarni hisobga olish masalalari.....	14
1.3. Vodiy va voha qishloqlarining o'ziga xos tabiati va tabiiy ekologik xususiyatlari.....	19
II-BOB: TOSHQO'RG'ON QISHLOG'I TABIATI VA UNDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK JIHATLARI	26
2.1. Toshqo'rg'on qishlog'ida tabiatdan foydalanishning eko-geografik xususiyatlari.....	26
2.2. Qishloq tabiatidan xo'jalikda foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalari.....	33
2.3. Qishloqda tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning kelajak istiqbollari	44
XULOSA	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	54

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Bizga ma'lumki, Farg'ona vodiysi o'zining husunkor tabiati, mehmondo'st va mehnatkash axolisi bilan nafaqat Respublikamizda balki O'rta Osiyo mintaqasida alohida ahamiyat kasb etadi. Farg'ona vodiysi axolisining aksariyat qismi qishloqlarda iste'qomat qiladi. Vodiy qishloqlari o'ziga xos ko'rinish va arxitekturaga egaligi bilan ajralib turadi. Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga qiritgandan so'ng, qishloq va shaharlarga e'tibor yanada kuchaydi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishda farq katta bo'lmasligini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va ular joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2009 yilni "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qilinishi mamlakatimizda ijtimoiy maqsadlarga qaratilgan milliy iqtisodiyotning strategik rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mos keladi. Bu o'z navbatida mustaqillikning avvalgi yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy siyosatning uzluksiz davomidir. Chindan ham yurtimiz tarixi, madaniyati, iqtisodiyoti, ma'naviy-ma'rifiy hayoti ko'p jihatdan qishloqlar bilan bog'liq. Respublikamiz aholisining deyarli yarmi qishloq joylarga to'g'ri kelishi va qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyot salohiyatining shakllanishidagi muhim o'rni qishloqlarga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi:¹ "Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir". Ta'kidlash joizki, garchi aynan

¹ Islom Karimov 2009 yilda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yakunlari va 2010 yilning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

2009 yil-“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb atalgan bo’lsada, mohiyatan u faqat shu yilning o`zini emas, balki o`rta va uzoq muddatga mo`ljallangan chora-tadbirlarni qamrab olgan. Shu munosabat bilan mamlakatimizda, jumladan Qoraqalpog’iston Respublikasi va viloyatlarda maxsus dastur ishlab chiqilgan va unda ko’zga tutilgan barcha tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy yo’nalishlar o’z aksini topgan. Dasturni amalga oshirish, shuningdek, ushbu dolzarb muammoga bag’ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni ham taqozo etadi. Bunday tadqiqotlarni bajarishda boshqa fanlar qatorida ekologiya fanining ham o’ziga munosib o’rni bor. Chunki, dasturning asosiy vazifalarini hal etishda joylarning geografik o’rni, rel`ef, gidrografiyasi, iqlimi, demografik vaziyatiga ko’p ahamiyat berilganligi fikrimizning isbotidir.

SHu o’rinda e’tirof etish zarurki, ekologiya fanida qishloqlarni alohida o`rganishga katta e`tibor berilgan. Qizig’i shundaki, urbanizatsiya darajasi uncha katta bo’lmagan O’zbekistonda ham ushbu muammo tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan. Albatta, mazkur holat yuzaga kelishining ayrim ob’ektiv sabablari bo`lishi mumkin. Vaholanki, qishloqlar, qishloqlarni o`rganish, yirik masshtabli geografik tadqiqotlar olib borish kishini yerga va elga, tabiatga va xalqqa yaqinlashtiradi, Qishloq hayoti, uning bevosita atrof-muhit bilan bog’liqligi, musaffo osmoni, yorqin yulduzlari, so’lim va sokin maskanlari, mahalla va guzarlari, ota-bobolarimizdan qolgan dalalari, milliy urf-odat, qadriyatlar o`zligimizni anglashga, mentalitetimizni saqlab qolishga muhim asos bo’lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz rahbari “Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada farovon bo’ladi”, deb bejiz ta’kidlamagan². Hozirgi kunda Namangan viloyatida 450 dan ortiq katta va kichik qishloq aholi punktlari bor. Ularning tarixiy shakllanishi, tabiati, demografik va ekologik holati bo’yicha katta hududiy farqlarga ega. Binobarin, ushbu bitiruv malakaviy ishi Chust tumani Toshqo’rg’on qishlog’ining ayniqsa mustaqillikdan keyingi tabiiy, ijtimoiy-

² Islom Karimov 2009 yilda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yakunlari va 2010 yilning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi

iqtisodiy va ekologik jihatlarini taxlil qilishga, tumanning boshqa qishloqlari bilan taqqoslanib xulosalar chiqarish zaruriyati tadqiqot mavzusini dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Qishloqlar aholisining salomatligi, kasallanish darajasi, kasallik turlari va ularning sabablari, umumiy nozogeografik vaziyat, nozogeografik o'choq va areallarni aniqlash qishloq joylarni ijtimoiy geografik nuqtai nazardan o'rganishda katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy geografik holat ko'p jihatdan joylarning ekologik xususiyatlariga bog'liq. Geoekologik vaziyat esa aholi salomatligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan ichimlik suvi, uning fizik-kimyoviy tarkibi, sifati, atmosfera havosi, shamol, ovqatlanish rejimi va ratsioni, joylarning sanitar-gigienik holatlari ham tahlil va tadqiq qilinadi.

Qishloq hududlari ekologiyasi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omil asosan, qishloq xo'jaligida har xil ximikatlar, gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish, tuproq erroziyasi va sho'rlanishi, chiqindilar, chorva fermalari, tovuq fabrikalari va boshqa mahalliy xususiyatlar bilan bog'lik. Tashqi omil esa chetdan keluvchi iflos havo, suv, transchegaraviy holatlar negizida yuzaga keladi. Qishloq, odatda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi. SHaharlarning ko'p funktsiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotining ko'p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanlagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi rolb o'ynashini ta'minlab beradi.

Qishloq shaharga ma'lum darajada bo'ysinadi, uni qishloq xo'jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ishchi kuchi bilan ta'minlab turadi. SHahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq xo'jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis xizmatini yetkazib beradi. Biroq, shu bilan birga, shahar ayrim ob'ekt yoki sohalarni chetga, qishloq joylarga chiqaradi. Masalan, yirik shaharlar

atroflarida mol bozorlari, chiqindixonalar, qabristonlar, omborxonalar, yonilg'i terminallari, transformator podstantsiyalari, avtobazalar joylashgan. Ularning ko'pchiligi qishloq landshaftini buzadi, ekologik vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, qishloq joylar geografiyasini o'rganishda ana shunday "shahar-qishloq" munosabatlarining hududiy jihatlariga ham ahamiyat bermoq zarur. Qishloq joylar geografik xususiyatlarini qishloq aholi punktlari nomlari ham ifodalab beradi. SHu o'rinda toponimika, ya'ni joy nomlar qishloqlarning tarixi, etnografiyasi, xo'jaligi kabi jihatlarini aks ettirishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu maqsadda mamlakatimiz olimlari H.Hasanov, S.Qoraev, P.G'ulomov, T.Nafasov, S.Tursunov, N.Oxunov, M.Mirakmalov, Yu.Ahmadaliev va boshqalarning asarlaridan foydalanish katta samara beradi. SHunday qilib, qishloq joylarni geografik o'rganish keng qamrovli, kompleks yo'nalishda olib boriladi. Bunday tadqiqotlar qishloqlar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini aniqlash va ularning ilmiy asosda yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obe'kti va predmeti. Mazkur BMIning tadqiqot obe'kti sifatida CHust tumani Toshqo'rg'on qishlog'i xududi tanlab olingan. Toshqo'rg'on qishlog'ida tabiatdan foydalanishning tabiiy, ijtimoiy ekologik xususiyatlari va tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish masalalari tadqiqot mavzusining predmetini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi Toshqo'rg'on qishlog'i tabiatidan foydalanishning ekologik jihatlarini o'rganish va tabiiy, qishloqning ijtimoiy ekologik muammolarini oldini olish va tegishli xulosalar ilmiy asosda o'rganib chiqishdan iboratdir. Buning uchun tadqiqot oldiga:

- Toshqo'rg'on qishlog'ini tabiiy geografik va ijtimoiy ekologik xususiyatlarini o'rganish;
- qishloqda mustaqillikdan keyin olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni taxlil qilish;
- qishloq xududlarda tabiatdan foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganish va baxolash;

- qishloq axolisini sanitar-gigienik jixatdan xolatini o'rganish;
- yer va suv resurslari bilan bog'liq muammolarni yuzaga kelish sabablarini taxlil qilish;

- qishloqda tabiatdan foydalanishning kelajak istiqbolarini belgilash va xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning ilmiy amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar ya'ni, CHust tumani Toshqo'rg'on qishlog'i tabiatidan foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni taxlil qilish hamda inson-tabiat-xo'jalik tizimlarini qay darajada yuzaga kelayotganligini aniqlash orqali, CHust tumanini ijtimoiy ekologik jihatlarini to'g'ri baxolash va tegishli ko'rsatmalar tayyorlash orqali tuman ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari yaxshilashda dasturul amal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi. Ushbu tadqiqot ishi 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo'lib, ta jadval, ta karta sxema va statistik materiallardan iborat.

I-BOB: QISHLOQ JOYLARI VA UNI O'RGANISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Qishloqlar yuzaga kelishining tarixiy-geografik jihatlari .

Qishloq joylar shahar va shaharchalardan tashqaridagi hududlar bo'lib, ularda qishloq xo'jaligida muntazam foydalanadigan yerlar hamda doimiy aholi manzilgohlari (punktlari) mavjud bo'lishi kerak. Demak, qishloq joylar geografik kartada areal, maydon ko'rinishida, qishloq aholi punktlari esa ular ichidagi nuqtasimon shakldagi jamiyatning ijtimoiy-hududiy tashkil etish birligi hisoblanadi. Qishloqlar shaharlarga qaraganda aholi yashash joyining qadimiyroq shaklidir. To'g'ri, qadimda dastlabki aholi manzilgohlari shahar yoki qishloq deb atalmagan. Qishloqlarning vujudga kelishi ijtimoiy mehnat taqsimotida sug'orma dehqonchilik madaniyati rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Sug'orma dehqonchilik avvallari tabiiy suv oqimidan foydalangan holda olib borilgan, keyinchalik sug'orish inshootlari (to'g'on, kanal va b.) va vositalari (chig'iriq) asosida rivojlangan. Albatta, bunday inshootlar yoki hozirgi zamon tili bilan aytganda, irrigatsiya infratuzilmalarini yaratish, qo'riqlash va ulardan foydalanish keng jamoatchilik mehnatini, aholini bir joyda va birgalikda yashashini taqozo etgan. SHunday qilib, jamoa (sotsium), kishilarning hududiy birligi, turg'un aholi manzilgohlari paydo bo'lgan.

Sug'orma dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi, shu asosda hunarmandchilik va savdoning rivojlanib borishi natijasida ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimotining navbatdagi muhim bosqichi boshlangan. Jamiyat hayotdagi bunday o'zgarishlar qishloqlardan shaharlarning ajralib chiqishiga va rivojlanib borishiga sabab bo'lgan. Aynan shu davrdan boshlab ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etilishining ikki shakli, ya'ni qishloqlar va shaharlar vujudga kelgan. E'tirof etish joizki, shaharlar qishloqlardan ajralib chiqqan, aksincha emas. Binobarin, aytish mumkinki, dastlabki shaharlarning kelib chiqishi qishloqlar bilan bog'liq bo'lgan. SHu bois, Yer yuzasining eng qadimiy shaharlari ham aynan Yaqin SHarq, hozirgi Isroil, Iordaniya, Suriya mamlakatlari hududida shakllangan. Qishloqlarning bunday evolyutsion tarzda

paydo bo'lishi va rivojlanishi L.I.Mechnikovning daryo (sug'orma dehqonchilik) tsivilizatsiyasi yoki madaniyati kontsepsiyasiga muvofiq yuz bergan. SHu nuqtai nazardan SHarq tarixi, madaniyatini qishloq va shaharlarning ajralmas birligi deb ta'riflashgan. Boshqa hududlarda esa, qishloqlarning vujudga kelishi makon va zamon jihatidan farq qilib, o'zgacha amalga oshgan. Bizning sharoitimizda qishloqlar "qishlov" ma'nosini anglatga ajab emas. CHunki, yaqin o'tmishda ham mahalliy xalq yozgi va kuzgi dala ishlarini (bog'dorchilik, chorvachilik, dehqonchilikni) tugatgach, qishni yig'ilgan don, meva, o'tin va boshqa zaruriy mahsulotlar bilan o'tkazish uchun qishloqlarga qaytishgan (Rossiyaning dasht mintaqalarida dehqonchilik rivojlangan hududlarida ham qishloqlar "selo", "stan", "stanitsa", ya'ni turg'un aholi punktlari ma'nosini bildiradi). Qishloq va shaharlar o'ziga xos "geojuftlik" bo'lib, birining rivojlanishi ikkinchisiga bog'liq. Qolaversa, qishloq borki, shahar bor, shahar borki qishloq bor. Demak, ularni bugungi kunda bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi va aholi ijtimoiy hayotini bunday hududiy tashkil etish shakllari doimiydir. Qishloqlik qishloqning asl mohiyati, qishloq hayot tarzi va sharoitini to'liq his qilishi uchun biroz bo'lsada, shaharda yashab ko'rishi kerak. Binobarin, shaharga doimiy yashash uchun ko'chib kelgan qishloqlik butun umr davomida shahar hayot tarziga moslashib (adaptatsiya qilib) boradi. Ayni paytda shahar qadri va mohiyatini, vaqtincha bo'lsada qishloqda yashab ko'rgan shaharlik ko'proq biladi va to'g'ri baholaydi. Xullas, qishloq ham, shahar ham go'zal. Biroq, ularning har biri o'zgacha chiroyga ega, agar qishloq joylar ko'proq tabiati bilan dilkash bo'lsa, shaharlar hashamatli binolariyu, zamonaviy xiyobonlari bilan go'zal. Qishloq joylar yoki qishloqlar asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholining hududiy shakli bo'lib, ularni ekologik tadqiq etish o'ziga hos talablarni qo'yadi. Ammo e'tirof etish zarurki, qishloqlar bu fan doirasida "omadi kelmagan" yo'nalish bo'lib, ular shaharlarga qaraganda juda oz o'rganilgan. Hatto bunday holat milliy iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi bilan bog'liq, aholining deyarli yarmi qishloqlarda yashovchi O'zbekiston

Respublikasiga ham taalluqlidir. Buning sababi bir nechta bo'lishi mumkin. Jumladan, shaharlarning jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutishi, yaqin o'tmishda qishloqlarga ikkinchi darajali munosabat, qishloqlarni asta-sekin shaharlarga aylantirish siyosati, qishloqlarning ko'p sonliligi va ular bo'yicha statistik ma'lumotlarning kamligi kabilar qishloqlarni o'rganishga nisbatan e'tiborsizlikni keltirib chiqargan.

Qishloq joylar qator funktsiyalarni (vazifalarni) bajaradi. Masalan, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik va boshqa funktsiyalari mavjud. O'z navbatida, qishloq xo'jaligi yoki iqtisodiyoti ham turlicha. Odatda, qishloq xo'jaligini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi tarmoq sifatida qarashadi. Aslida esa, u ham ancha murakkab tizim bo'lib, bevosita "tor" ma'nodagi qishloq xo'jaligidan tashqari qator sohalarni qamrab oladi. SHu nuqtai nazardan qishloq xo'jaligini jahon xo'jaligi, xalq (milliy) xo'jaligi, shahar xo'jaligi kabi umuman xo'jalikning (iqtisodiyotning) hududiy tashkil etilishini alohida taksonomik birligi yoki bo'g'ini sifatida, keng ma'noda talqin qilish ham zarur. Qishloq joylarni o'rganishda ularga o'ziga xos agrolandshaft, hududiy majmua yoki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim ko'rinishida metodologik yondashuv maqsadga muvofiq hisoblanadi. SHundan kelib chiqqan holda qishloq joylarni o'rganishda kompleks va sistemali yondashuv, hududiylik, tarixiylik (ba'zi olimlar uni davriylik deb atashadi) tamoyillar qo'llaniladi. Ular statistik, tarixiy va geografik taqqoslash, kartografik, tizim-tarkib, guruhlash, rayonlashtirish va boshqa metodlar asosida amalga oshiriladi. Qishloq joylarni o'rganishda ular joylashgan hududning tabiiy geografik sharoitiga alohida e'tibor bermoq lozim.

Xususan, joyning iqlim sharoiti, reʼlifi, suv va tuproq resurslari, o'simlik dunyosi kabilar muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda aksariyat qishloqlar gidrologik shahobchalar bo'yida yoki ularning quyi qismida tarixan shakllangan. Soylar, daryolar, suv omborlari va irrigatsiya kanallari qishloqlar geografiyasini ko'p jihatdan belgilab beradi. Soylar yoymasi va ulardan tarqalgan kanallar (ariqlar), ko'p qo'l mehnati talab qiluvchi sug'orma

dehqonchilikning rivojlanishi asosida yirik qishloqlar vujudga kelgan. Bunga Farg'ona vodiysi soylari, ayniqsa, So'x va Isfara daryolari quyi qismida tashkil topgan qishloqlar misol bo'la oladi. Qishloqlar ko'pincha tepaliklarda, tog' etaklarida joylashgan. Bunday mikrogeografik o'rin strategik jihatdan hamda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida zahllashning oldini olish uchun ham qulaydir.

Tabiiy geografik omil qishloqlarning cho'l, voha va vodiy, tog' va tog' oldi hududlarda joylanishi, uy-joy qurilish shakli ularning mintaqaviy xususiyatlarini tavsiflab beradi. SHuningdek, turli tabiiy ofatlar ehtimoli mavjud bo'lgan (surilma, o'pirilish, sel kelish holatlari, zilzila, kuchli shamol va h.k.) hududlarda o'rnashgan qishloqlar qulay geografik o'ringa ega emas. SHunday qilib, qishloqlar shaharlarga nisbatan tabiiy sharoit bilan kuchliroq bog'liq bo'ladi. Modomiki, qishloq xo'jaligi bevosita Qizig'i shundaki, vodiyning ba'zi bitta katta aholi punkti, ya'ni aholi joylashuvining hududiy yaxlit, yagona shakli doirasida rasmiy ravishda 2-3 qishloqlar ajratilgan yoki ular hududiy jihatdan bir-biri bilan qo'shilib ketishgan. tabiiy ekologik sharoit ta'sirida rivojlanar ekan, uning qishloqlariga ta'siri ham hech qanday shubha qoldirmaydi. Qolaversa, mahalliy qurilish materiallari-qum, shag'al, ohak, tosh va boshqalar ham qishloqlar qiyofasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Soy va boshqa gidrologik shahobchalar, tor tog' vodiylarida joylashgan qishloqlar uylari terrassasimon, aholi manzilgohlari esa cho'zinchoq, tasmason hududiy shaklga ega bo'ladi. Soylarning suv miqdori va oqim rejimi, vodiyning tor yoki kengligi, dehqonchilik uchun yaroqli yerlarning mavjudligi ham bu joylarning demografik sig'imiga, qishloqlarning katta-kichikligi va bajaradigan vazifalariga ta'sir ko'rsatadi. Odatda, yer tanqis bo'lgan maydonlardagi qishloqlar "Zarkent", "Zarhok", "Zarmitan" deb ataladi, ya'ni ekin ekish uchun qulay kichik yer zarga, oltinga tenglashtiriladi.

Qishloqlar shakllanishi va rivojlanishining asosini iqtisodiyot tarmoqlari tashkil qiladi. Bu jihatdan qishloqlar uch toifaga bo'linadi: qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmagan va aralash qishloqlar. O'z

navbatida, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan qishloqlar bog'dorchilik va uzumchilik, sug'orma dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadigan qishloqlardan tashkil topadi. Bu qishloq xo'jalik tarmoqlarining "qishloq hosil qilish" qobiliyati ham har xil. Nisbatan katta qishloqlar sug'orma dehqonchilik rivojlangan rayonlarda vujudga keladi, chorvachilik bilan shug'ullangan aholining yashash manzillari uncha katta bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmagan qishloqlar temir yo'l bekatlari, meteorologik stantsiya, rekreatsiya va turistik sohalar, qazilma boyliklar, suv omborlari va kanallar asosida shakllangan. Bu qishloqlarning aholisi ham uncha ko'p bo'lmaydi. Ishlab chiqarish salohiyati katta bo'lmasligi sababli bunday qishloqlarning aksariyati shahar yoki shaharcha maqomiga ega emas. Aralash tipdagi qishloqlar yuqoridagi ikki sohalarning rivojlanishi yoki, odatda, qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sanoat korxonalarini negizida vujudga kelgan. Bunday qishloqlarning demografik salohiyati nisbatan katta bo'lishi mumkin. Demak, qishloqlarning katta-kichikligini ularning bajaradigan funksiyasi belgilab beradi. Bu aholi punktlari geografiasining eng muhim qonuniyatlaridan biridir. Sobiq Ittifoq davrida qishloqlar shaharlashuv (urbanizatsiya) nuqtai nazaridan ikkiga, ya'ni istiqbolli va istiqbolsiz qishloqlarga ajratilib, go'yoki ularning taqdiri oldindan aytilib berilar edi. Aslida esa, har qanday qishloq, u katta yoki kichik bo'lmasin mavjud ekan, uning albatta iqtisodiy (hayotiy) zamini bor. Chunki, bunday moddiy asosga ega bo'lmagan qishloq asta-sekin o'z-o'zidan yo'qolib ketadi. Qishloqlarning katta-kichikligi ularning funksiyasiga bog'liq bo'lishi bilan birga bunday aholi manzilgohlarida aholiga xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish sharoiti turlicha bo'ladi.

Qishloq aholi punktlari zich joylashgan hududlarda o'ziga xos "qishloq aglomeratsiyasi" shakllanib, ular doirasida ham mayatniksimon migratsiya kuzatiladi. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimi qishloq joylarda pog'onasimon, ierarxiyali tashkil etiladi. V.Kristallarning "markaziy o'rinlar" g'oyasiga binoan, mayda qishloqlarda

ta'lim yoki sog'liqni saqlash tizimlarining eng qo'yi bosqichi joylashadi. Qishloqlar kattalashib borgan sari ularda tashkil etilgan bu sohalarga tegishli ob'ektlar ham kattalashib boradi. Masalan, eng katta qishloqlarning ba'zilarida kollej yoki akademik litsey, yirik kutubxona, kasalxona, ixtisoslashgan savdo do'konlari, bank, supermarketlar tashkil etiladi. Qishloqlar dam olish maskanlari (rekreatsiya) va turizmni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. So'lim va soya-salqin, go'zal manzarali joylar qishloqlarda ko'plab topiladi. Xususan, soy va buloqlar bo'yidagi qishloqlarda turli oromgoh va sihatgohlar tashkil etilgan. Ayni vaqtda qishloq joylarda mahalliy, diniy, agroturizm va ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham katta. Turli xil qadamjolar, baliqmozor yoki chinorlar, g'or va shar-shararalar, ajoyib tog' yoki voha landshaftlari, milliy xalq o'yinlari, marosim va to'ylari, taomlari va liboslari ham muhim turistik ahamiyatga ega. Jumladan, agroturizm mahalliy va mintaqaviy iqtisodiyotning "qadam-baqadam" rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. SHuningdek, turli xil arxeologik topilmalar, qo'rg'on va tepalar, qadimgi irrigatsiya inshootlari ilmiy va xalqaro turizmni hududiy tashkil etishda omil bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, Bunday yodgorliklar Farg'ona vodiysida ayniqsa Namangan viloyatida ko'p. Qishloq joylarni geografik o'rganishda ularning ana shu jihatlariga ham e'tibor bermoq zarur. Qishloq joylar ekologiyasini tadqiq qilishda markaziy o'rinni, albatta aholi egallaydi. CHunki, qishloq, eng avvalo, aholi yashaydigan joy, manzil hisoblanadi. Aholi esa o'z-o'zini takror barpo qilish xususiyatiga ega bo'lishi barobarida u moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi va ayni vaqtda bu boyliklarning iste'molchisi hamdir. Qishloq joylar aholisini geografik o'rganishda ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi bu joylar aholisini "yoppasiga", ya'ni qishloq tumanlari, viloyat yoki respublika qishloq aholisining joylashuvi, zichligi kabi umumiy xususiyatlarini tahlil qilish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish qishloq aholisini qishloq aholi punktlari darajasida tadqiq etishdan iboratdir. Ammo bu ikki yo'nalishlar, bir-biridan keskin farq qilmaydi, aksincha, ularni o'zaro muvofiqlashtirgan holda

o'rganish yaxshi natijalar beradi, binobarin, bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiradi va tadqiqot chuqurligi, mukammalligini ta'minlaydi. Qishloq aholi punktlari o'rganilganda ularni, eng avvalo tasniflash zarur. Bu jihatdan qishloqlar uch asosiy sinfga bo'linadi: kichik qishloqlar (aholi soni 1000 kishigacha), o'rta (1000-3000 kishi) va katta (3000 kishi va undan ortiq) qishloqlar. Maxsus tadqiqotlarda bu guruhlashtirish yanada aniqroq darajada bajariladi. Bunda, masalan, qishloqlarning katta-kichikligi bo'yicha quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- Mayda qishloqlar-aholi soni 500 kishigacha;
- Kichik qishloqlar-500-1000 kishi;
- O'rta qishloqlar-1000-3000 kishi;
- Katta qishloqlar-3000-5000 kishi;
- Yirik qishloqlar-5000 kishidan ziyod.

Qishloq aholi punktlarining yuqoridagi guruhlariga ajratilishi tasodifiy emas, albatta. Turli bosqichdagi qishloqlar xo'jaligining ixtisoslashuvi va mujassamlashuviga qarab, ularda ta'lim, savdo, sog'liqni saqlash, moliya tizimiga tegishli muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma shahobchalari har xil bo'ladi. Qishloqlarning katta-kichikligi, avval ta'kidlanganidek, ularning qaysi sohaga ixtisoslashuviga bog'liq. O'z navbatida, qishloqlarda aholi sonining ko'p yoki kamligi xizmat ko'rsatish va servis sohasini joylashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

1.2. Qishloq joylarni o'rganishda ijtimoiy ekologik xususiyatlarni hisobga olish masalalari

Qishloq aholi punktlarini o'rganish ularni kartalashtirish va rayonlashtirishni taqozo etadi. Rel'efi murakkab bo'lgan hududlarda qishloqlarni balandlik mintaqalari bo'yicha o'rganish muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, ularni daryo havzalari, cho'l, voha va vodiylar, shahar atrofi darajasida tadqiq qilish ham katta ekologik ma'noga ega. Bunda tahlil qishloqlar va qishloq aholisi zichligi, qishloqlar o'rtasidagi o'rtacha masofa va boshqa

ko'rsatkichlarni aniqlashni ham talab qiladi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, qishloq tumanlari miqyosida aholi zichligini hisoblash katta aniqlikka ega emas. Bu ko'rsatkich ma'muriy tumanning barcha hududlariga taalluqli (aholi yashash yoki yashamasligidan qat'iy nazar, cho'l yoki tog'li hududlarni ham qamrab oladi). Binobarin, aholi zichligini qishloq va uning tasarufidan yerlar maydoni darajasida aniqlash lozim. Ba'zi mualliflar aholi zichligini qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarga nisbatan hisoblansa, tahlil yanada chuqurroq va to'g'riroq bo'ladi deb hisoblaydilar Qishloq xo'jaligida foydalanilmay, hozirgi davrda qishloqlarda paydo bo'layotgan katta-kichik sanoat korxonalari, rekreatsion va boshqa maydonlarni qo'ymaslik mantiqan to'g'ri bo'lmaydi.. Qishloq aholi punktlarini o'rganishda ularni katta-kichikligiga ko'ra guruhlashdan tashqari bajaradigan vazifasiga (funktsiyasi) bo'yicha alohida tiplarga ajratish ham maqsadga muvofiq. Qishloqlarning uch asosiy funktsiyaga bo'linishi haqida avvalroq aytilgan edi. SHu bilan birga qishloqlarni oddiy, qishloq fuqarolari yig'inlari markazi ba'zan tumanlari markazi vazifasini bajaruvchi guruhlarga ajratish ham mumkin. Ularni rayonlashtirish esa tabiiy-xo'jalik rayonlari doirasida amalga oshiriladi. CHunki, tabiiy sharoit, agroiklimiy resurslar (namlik, harorat, tuproq) qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvi va ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatadi, ular esa, o'z navbatida, qishloqlar katta-kichikligi va funktsional tiplarini belgilab beradi. Bunda shahar atrofi hamda urbanizatsiyalashgan hududlarni alohida ajratish zarur.

Qishloq aholi punktlarini genetik jihatdan o'rganish, xususan qadimdan va yangi o'zlashtirilgan hududlarda ularning vujudga kelish omillari va xususiyatlarini aniqlash ahamiyatdan xoli emas. SHuningdek, qishloqlarni uy-joy qurilishi, obodonlashtirilganligi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlanganligi, tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) kabi jihatlarini ham tadqiq qilish katta geografik mazmun zarur. Qishloq joylari demografiyasi tahlili ham bu boradagi umumiy bilimlarni to'ldiradi. U ayni vaqtda qishloqlar aholisi geografiyasini o'rganish bilan bog'liq. Agar asosiy maqsad qishloq joylar demografik jarayonlarini hududiy jihatdan

tadqiq etish bo'lsa, bunday yondashuvni demogeografik tavsif deb atash mumkin. Aksincha, birinchi o'ringa hududlar (viloyatlar, qishloq tumanlari, qishloq fuqarolar yig'ini va qishloqlar) ob'ekt sifatida qo'yilsa, ularning ustuvorlik darajasi yuqori bo'lsa, u holda geodemografik yondoshuv nazarda tutiladi. Biroq ta'kidlash lozimki, mintaqaviy demografiya va demografik vaziyatga bunday hududiy yondashuvlar orasida katta farq yo'q; farq faqat qaysinisi tadqiqot ob'ekti darajasida qabul qilinishida. Umuman olganda, har qanday hodisa yoki voqelik albatta qaerdadir, qaysi bir makonda sodir bo'ladi. SHu nuqtai nazardan hududiylik tamoyili bu yerda umummetodologik xususiyatga ega. Shular asosida, qishloq joylari ekologiyasini o'rganishda demografik ko'rsatkichlardan quyidagilar tahlil qilinishi kerak:

- aholi soni, uning o'sishi va joylanishi;
- aholining takror tiklanish darajasi (tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish);
- aholi tabiiy va mehanik harakatining demografik vaziyatga ta'siri;
- aholining yosh-jins tarkibi;
- aholining milliy tarkibi;
- mehnat resursi shakllanishining demografik asoslari va b.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning tadrijiy jihatdan, ya'ni ularning dinamikasining tahlil qilinishi, tegishli qonuniyat yoki xususiyatlarni, bu jarayonlarning hududiy farqlari, tafovutlari va ularning sabablarini aniqlashga imkon beradi. Bunda geografik taqqoslash, guruhlash, geodemografik to'lqinlarni belgilash kabi usullar qo'llaniladi. Geodemografik to'lqinlar, yangiliklarning diffuzion tarqalish qonuniga binoan, u yoki bu demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning hududiy "harakati" bilan bog'liq. Ularni aniqlash hududlar demografik vaziyatini prognoz qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "tug'ilish ko'rsatkichlarining so'nggi 15-20 yildagi pasayib borishi ma'lum geografik qonuniyatlarni aks ettiradi, jumladan, markaziy mintaqalarda tug'ilish (tabiiy ko'payish) umumiy koeffitsientining pasayish

jarayoni viloyatlar darajasida to'liqsimon davom etadi va chekka hududlarda "to'xtaydi". Boshqacha qilib aytganda, markazda kuzatilgan bugungi holat, ma'lum vaqt (yil) o'tgandan so'ng, chekka hududlarda, qishloq joylarda qayd etiladi yoki, hozirgi qishloqlardagi demografik vaziyat bundan ma'lum vaqt oldin markazda yuz bergan bo'lishi mumkin. Bunday geodemografik jarayonlar markaz-chekka hududlar ("tsentr-periferiya") g'oyasiga ham o'xshab ketadi.

Qishloq joylarni ekologik jihadan o'rganishda ijtimoiy masalalar muhim o'rin tutadi va ular ham demografik jarayonlar kabi aholi geografiyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda qishloq aholisining yashash sharoiti va tarzi, ijtimoiy infratuzilma, geokrimenogen, nozogeografik va geoekologik holatlar tahlil qilinadi. Qishloq aholisi tabiatga "yaqin". SHahar joylarda esa tabiiy sharoit kuchli deformatsiyalashgan, o'zgargan. Bu yerda o'ta zich joylashgan va o'ziga xos hayot tarziga ega bo'lgan aholi yashaydi. Avval qishloqda yashagan kishi, hududiy tanglik va tanqislik mavjudligi sababli bo'shliqqa, yakkalikka intiladi, uning tabiati ham o'ziga xos. Odatda, qishloq aholisida qarindosh-urug', qo'shnihilik munosabatlari ko'proq rivojlangan bo'ladi. Qishloqliklar shaharliklarga qaraganda yangiliklarni sekinroq qabul qiladi va bu yangilik nisbatan turg'un holatda ancha saqlanib turadi. SHahar joylarda esa mavjud holat tez-tez o'zgarib, yangilanib boradi. Demak, shu o'rinda, geografik ma'noda shahar joylarni Yer yuzining quruqlik qismiga, qishloqlarni dengiz-okeanlarga qiyoslash mumkin. SHaharlarning o'ta harakatchanligi ularning hududlarni urbanizatsiyalashtirish hususiyatlarini keltirib chiqaradi. Urbanizatsiya – hududlarda "shaharchasiga" yashash, ishlash tarzining tarqalishi bo'lib, bu jarayon, eng avvalo, qishloq joylarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda respublikamizda, xususan qishloq joylar infratuzilmasini yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini to'g'ri hududiy tashkil etish va rivojlantirish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. SHuningdek, chakana savdo va pullik xizmat qishloq tumanlari va qishloq fuqarolar yig'ini (QFY) darajasida

tadqiq qilinishi lozim. Bunda mutlaq ko'rsatkichlar bilan kifoyalanish to'liq xulosalar beraolmaydi. SHu bois, bu borada nisbiy ko'rsatkichlardan, masalan, aholi jon boshiga qancha savdo yoki pullik xizmat bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Sog'liqni saqlash tizimida ham qishloq vrachlik punktlari (QVP), ularning zichligi, qancha aholiga xizmat ko'rsatishi, ta'sir doirasi-radiusi kabi hududiy xususiyatlari o'rganiladi. SHu bilan birga qishloq aholisining salomatligi, kasallanish darajasi, kasallik turlari va ularning sabablari, umumiy nozogeografik vaziyat, nozogeografik o'choq va areallarni aniqlash qishloq joylarning asosiy ekologik xususiyatlariga kiritish lozim. Geoekologik vaziyat esa aholi salomatligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan ichimlik suvi, uning fizik-kimyoviy tarkibi, sifati, atmosfera havosi, shamol, ovqatlanish rejimi va ratsioni, joylarning sanitar-gigienik holatlari ham tahlil va tadqiq qilinish kerak. Qishloq hududlari ekologiyasi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omil asosan, qishloq xo'jaligida har xil ximikatlar, gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish, tuproq eroziyasi va sho'rlanishi, chiqindilar, chorva fermalari, tovuq fabrikalari va boshqa mahalliy xususiyatlar bilan bog'lik. Tashqi omil esa chetdan keluvchi iflos havo, suv, transchegaraviy holatlar negizida yuzaga keladi. Qishloq, odatda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi. SHaharlarning ko'p funktsiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotining ko'p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanlagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi rol o'ynashini ta'minlab beradi. Qishloq shaharga ma'lum darajada bo'ysinadi, uni qishloq xo'jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ishchi kuchi bilan ta'minlab turadi. SHahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq xo'jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis xizmatini yetkazib beradi. Biroq, shu bilan birga, shahar ayrim ob'ekt yoki sohalarni chetga, qishloq joylarga chiqaradi.

Masalan, yirik shaharlar atroflarida mol bozorlari, chiqindixonalar, qabristonlar, omborxonalar, yonilg'i terminallari, transformator podstantsiyalari, avtobazalar joylashgan. Ularning ko'pchiligi qishloq landshaftini buzadi, ekologik vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, qishloq joylar geografiyasini o'rganishda ana shunday "shahar-qishloq" munosabatlarining hududiy jihatlariga ham ahamiyat bermoq zarur. Qishloq joylar geografik xususiyatlarini qishloq aholi punktlari nomlari ham ifodalab beradi. SHu o'rinda toponimika, ya'ni joy nomlar qishloqlarning tarixi, etnografiyasi, xo'jaligi kabi jihatlarini aks ettirishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu maqsadda mamlakatimiz olimlari H.Hasanov, S.Qoraev, P.G'ulomov, T.Nafasov, S.Tursunov, N.Oxunov, M.Mirakmalov, Yu.Ahmadaliev va boshqalarning asarlaridan foydalanish katta samara beradi. SHunday qilib, qishloq joylarni ekologik o'rganish keng qamrovli, kompleks yo'nalishda olib boriladi. Bunday tadqiqotlar qishloqlar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini aniqlash va ularning ilmiy asosda yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.3. Vodiy va voxa qishloqlarining o'ziga xos tabiati va tabiiy ekologik xususiyatlari xususiyatlari

Respublikamizning tabiiy sharoiti-iqlim va yer usti tuzilishi turli hududlarda har xil. Mamlakatimizning katta qismi cho'l, taxminan 20 foizi tog'liklar va faqat oz maydoni voha va vodiylardan iborat.

Voha va vodiylar O'zbekiston xo'jaligi va aholisi hududiy tashkil etilishining asosiy shakllari hisoblanadi. Aynan ularda milliy iqtisodiyotning katta qismi mujassamlangan. SHu bilan birga voha va vodiylarning demografik sig'implari, qishloq xo'jalik salohiyati yuqori bo'lib, bunday hududlarda aholining tabiatga bosimi kattaligi tufayli o'ziga xos agrova antropogenlandshaftlar, geoekologik tizimlar vujudga kelgan.

Ana shu voha va vodiylar Aholi zich joylashgan hududlar hisoblanadi (masalan, Farg'ona vodiysida). Qishloqlarda uy-joy qurilishi ko'proq yo'l, kanallar bo'ylab cho'zilib, buning natijasida, aholi manzilgohlari bir-biri bilan

qo'shilib, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli qimmatbaho yer maydonlari ekin ekish oborotidan chiqib ketmoqda.

“Vodiy” tushunchasi ko'proq gidrologik shahobchalar, xususan, daryolar va ularning “ishlari” bilan bog'liq. Odatda, daryo vodiylari cho'zinchoq shaklda bo'lib, ularning konfiguratsiyasi (geografik qiyofasi) suv ayirg'ich chiziqlari va daryo havzalari bilan belgilanadi. Jumladan, O'rta Osiyoning durdonasi hisoblangan Farg'ona vodiysi, uning iqtisodiy va ijtimoiy geografiasining shakllanishida Sirdaryo hamda ko'plab soylar ta'siri hal qiluvchi bo'lgan. SHu o'rinda aytish mumkinki, Farg'ona vodiysi soylar va ularning yoyilmalarining, quyi qismida paydo bo'lgan vohalar yig'indisidir. Bunday soylar vodiya ko'p: So'x, Isfara, SHohimardonsoy, Marg'ilonsoy, Namangansoy, CHortoqsoy, Kosonsoy, CHodoqsoy, Uyg'ursoy va h.k. Aynan ular vodiya hayotida katta ahamiyatga ega va shuning uchun ham ba'zan adabiyotlarda “Farg'ona vohasi” tushunchasi ishlatiladi. Demak, vodiya ko'proq gidrologik mazmunga ega bo'lgan geografik fenomen hisoblanadi.

SHu bilan birga e'tirof etish lozimki, Farg'ona vodiysiga nisbatan cho'kma, botiq (“kotlovina”, “vpadina”) tushunchalari ham ishlatiladi. Bu esa, fikrimizcha, geologiya va geomorfologiya fanlari nuqtai nazaridan to'g'riroqdir. Farg'ona vodiysi deyarli to'rt tomondan CHotqol, Qurama, Farg'ona, Oloy va boshqa tog' tizmalari bilan o'ralgan bo'lib, faqat g'arbda, “Xo'jand darvozasi” orqali u O'rta Osiyoning tekislik qismlariga chiqadi. Ma'muriy jihatdan vodiya murakkab, transchegaraviy hudud sanaladi; bu yerda O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston respublikalarining tarixan bir-biri bilan aloqada rivojlanib kelgan Andijon, Farg'ona, Namangan, O'sh, Arab mamlakatlarida vaqti-vaqti bilan suv oqadigan, aslida esa qurib qoladigan daryo o'zanlari “vodiya” Avstraliyada “krik”, Turkmanistonda “uzboy” deb ataladi. Jalolobod, Botkon va So'g'd viloyatlari joylashgan. Geosiyosiy jihatdan vodiya bu davlatlarning eksklav va anklav hududlari ham mavjud. Vodiya, shu jumladan uning O'zbekiston qismi qadimdan sug'orma dehqonchilik, savdo hamda hunarmandchilik rivojlangan mintaqa hisoblanadi. Hududning qishloqlar

geografiyasi, aholi joylashuv tizimi ham o'ziga xos va betakrordir. Masalan, aholining zich joylashuvi bo'yicha Farg'ona vodiysi nafaqat O'zbekistonda, balki MDH mamlakatlarida ham keskin ajralib turadi. SHu sababdan bo'lsa kerak, sobiq Ittifoq aholi va dehqonchilik kartalarida unga alohida e'tibor berilib, "vrezka" shaklida keltirilgan. Taniqli geograf olim N.N.Baranskiy ham vodiy misoliga ko'plab murojaat qilgan, ayniqsa, So'x yoymasini klassik (tipik) ijtimoiy-iqtisodiy fenomen sifatida targ'ib va tashfiq qilgan. Farg'ona vodiysini uning soylari, irrigatsiya shahobchalari-kanallar bo'yida, kichik va katta shaharlarni bog'lovchi yo'llar yoqasida joylashgan qator-qator, bir-biri bilan ulashib ketgan qishloqlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. SHu nuqtai nazardan qishloqlar aynan mazkur hududga ko'proq xosdir.

SHu bilan birga unutmazlik kerakki, katta va aholi joylanishining umumiy o'rtacha ko'rsatkichi past bo'lgan tog'li yoki cho'l hududlarda ham aholi va aholi punktlarining asosiy qismi kichik voha yoki tog' daryo (soy) vodiylarida joylashgan. Bu esa mazkur hududlarning ichki tafovuti, geografiylik koeffitsientining kattaligini ko'rsatadi.

Namangan viloyati qishloqlar geografik o'rniga namgarchilik va irrigatsiya tarmoqlarining mavjudligi katta ta'sir ko'rsatadi. Viloyat Farg'ona vodiysi miqyosida yog'in-sochin miqdori va suv zaxiralari bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan. Bunday holat uning geografik o'rniga ham bog'liq. Mashhur iqlimshunos olim A.I.Voeykov yog'in-sochin miqdori bilan aholi zichligi o'rtasida katta aloqadorlik borligini o'qtirgan edi. Uning bu xulosasi qisman Namangan viloyatiga ham to'g'ri keladi. Biroq bu yerda namgarchilik emas, ko'proq gidrografik shahobchalar katta ahamiyatga ega. Namangan soy, CHortoqsoy, Kosonsoy, SHimoliy Farg'ona kanali, Katta Namangan kanallari va ko'plab ariqlar mintaqa aholi geografiyasining asosiy xususiyatlarini belgilab beradi.

Voha, odatda, cho'l, quruq iqlimli hududlar uchun xos bo'lgan geografik fenomendir. U bepoyon cho'l hududida o'ziga xos orol yoki atrof-muhitdan keskin farq qiluvchi anklav shaklida yaqqol ko'zga tashlanadi. SHunday

vohalar asosan respublikamizning g'arbida, ya'ni cho'l mintaqasi xududlarida joylashgan. Ushbu vohada qadimgi sug'orma dehqonchilik asosida fan va madaniyat rivojlanganligi bilan ajralib turishi barchaga sir emas. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, hududning mehnatsevar xalqining o'ziga xos, betakror madaniyati, tili, urf-odati, mentalitetini uzoq o'tmishdan beri deyarli o'zgarmay saqlanib qolishi

ma'lum darajada uning geografik o'rniga bog'liq. Mintaqaning chor atrofdan qumli cho'llar bilan o'ralib turishi uni turli xil tashqi ta'sirdan qaysi bir ma'noda saqlab qolgan.

Vohalarning eng muhim geografik xususiyati shundaki, uning yer usti tuzilishi uncha murakkab bo'lmagan tekisliklardan iborat. Bu esa hududning bir tekis, qishloq xo'jaligi nuqtai nazardan hisobga olmaganda) intensiv o'zlashtirilganligiga asos bo'lgan. SHu bois, qishloq tumanlari darajasida aholi zichligi keskin farq qilmaydi.

Mintaqaning qadimgi sug'orma dehqonchiligi, voha xo'jaligining rivojlanganligi, paleoirrigatsiya tarmoqlari qator olimlar, jumladan S.P.Tolstov, V.V.Bartol'd, Yu.G.Saushkin va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Bu yerda qadimda chig'iriy usulidan foydalanish, keyinchalik qator irrigatsiya infratuzilma shahobchalarining barpo etilishi, ko'p qo'l mehnati talab qiladigan qishloq xo'jaligining rivojlanganligi (paxta, sholi va boshqa suv talab va mehnattalab ekinlarning ekilishi) aholining zich joylashuviga sabab bo'lgan.

Viloyat qishloqlarining tarkibiy tuzilishiga uning hududini deyarli bir xil darajada o'zlashtirilganligi va o'rtacha kattalikdagi qishloqlarning bir tekis keng tarqalganligi o'z ta'sirini ko'rsatgandir. Vodiya esa katta qishloqlarning ko'pligi asosan soylar, ularning gidrologik rejimi va yoymasi bilan bog'liq. SHu sababdan Namangan va boshqa unga yondosh hududlarda katta qishloqlar ko'p tarqalgan.

CHO'l mintaqalari ham o'ziga xos tabiiy geografik birlik hisoblanadi.

Ularning eng muhim xususiyati yog'in-sochinning (namgarchilikning) o'ta kamligi va mumkin bo'lgan parlanishning juda yuqoriligidir. Demak, bu

hududlar issiq va quruq iqlimi, suv tanqisligi bilan boshqa landshaft turlari orasida alohida ajralib turadi. Cho'llarning bunday xususiyatlari ularda aholi va xo'jalik tarmoqlari joylashuvini belgilab beradi. Odatda, cho'l hududlarida aholi punktlari tarqoq va mayda, xo'jalik tarmoqlari ekstensiv rivojlangan bo'ladi. Ularning demografik va iqtisodiyot salohiyatini zaifligi tufayli cho'llar, ko'pincha, "bo'sh yerlar" ma'nosida talqin qilinadi (masalan, rus tilida "пустыня", "пустое место", ya'ni bo'sh joylarni anglatadi). Vaholanki, cho'llar turli xil qazilma boyliklarga, xususan, neft, gaz, tuz, oltin va boshqa yirik konlarga ega (cho'lda konlar ko'p, issiq kunlar ko'p, ammo suv va aholi soni oz). O'zbekiston sharoitida cho'l mintaqalarida uncha baland bo'lmagan qoldiq tog'lar va suv bilan nisbatan yaxshiroq ta'minlangan hududlarda kichik vohalar tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy kartada "yashil orollar" ko'rinishida yaqqol ko'zga tashlanadi. SHu bilan birga bu hududlarda o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosi, rekreatsiya va turistik resurslar ham mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizning taxminan 70 foiz maydonini cho'llar egallaydi. Cho'lshunos olim I.Q.Nazarov boshqa soha mutaxassislari fikriga qo'shilgan holda, cho'llarni o'zlashtirish nuqtai nazardan ikki qismga cho'l vohalar va cho'l yaylovlarga ajratadi. Bevosita cho'l yaylovlari bilan band yerlar jami mamlakat hududining taxminan 58 -60 foizini tashkil qiladi.

Umuman olganda, cho'l mintaqalari asosan, respublikamizning g'arbiy qismini egallagan. Ularga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlarining katta qismlari kiradi. Eng "cho'lli" hududlar esa Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Navoiy va Buxoro viloyatlari hisoblanadi. Ayni vaqtda, bu mintaqalar O'zbekiston Respublikasining maydoni bo'yicha katta ma'muriy birliklaridir.

Mamlakat maydonining tog' va tekisliklardan, cho'l, voha va

vodiylardan iborat ekanligi-bu uning "baxtidir". Sababi, aynan ana shunday umumgeografik vaziyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining negizi bo'lgan hududiy mehnat taqsimotining rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi. O'zbekiston hududining taxminan 20 foizini tog' va tog' oldi hududlar ishg'ol

qiladi. Bu yerda G'arbiy Tyanshan, Hisor, Pomir-Oloy, Turkiston va boshqa tog' tizmalari mavjud. Respublikamiz hududidagi eng baland nuqta Hazrati Sulton cho'qqisi (4646 m) hisoblanib, u Surxondaryo viloyatining shimoli-sharq qismida, Hisor tog' tizmasida joylashgan.

Ma'muriy jihatdan tog'li hududlar Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Namangan, Farg'ona, Navoiy viloyatlarda bor. Lekin ularning barchasini tog'li mintaqalar deb atash nodurustdir. Bu xususda hududning "tog'lilik" koeffitsienti, ya'ni tog'lar egallagan maydonining viloyatning umumiy maydoniga nisbati orqali aniqlash to'g'riroqdir. Agar bu koeffitsient 0,50 dan (yarimdan) ko'p bo'lsa, u hududni "tog'li" deb atash mumkin. Bu ko'rsatkichning 1,00 ga tengligi mazkur hududning to'la-to'kis tog'li ekanligidan dalolat beradi. Respublikamizda 30 ga yaqin qishloq tumanlari tog'li hududlar tarkibiga kiritilgan. Ular, masalan, Surxondaryoning Boysun, Uzun, Sariosiyo, Oltinsoy; Qashqadaryoning Kitob, SHahrisabz, Yakkabog', Dehqonobod; Namangan viloyatining Pop, CHust, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy; Farg'onaning So'h, Samarqand viloyatining Urgut, Qo'shrabot; Navoiy viloyatining Nurota; Toshkent viloyatining Parkent, Bo'stonliq, Ohangaron kabi tumanlardir. Biroq qishloq tumani "tog'li" bo'lishi mumkin, butun viloyat maydonini bunday baholash uchun esa tog' landshaftlaridan tashkil topgan hududlar uning asosiy qismini egallagan bo'lishi kerak. SHu jihatdan qaraganda, mamlakatimizning eng tog'li mintaqasi Surxondaryo viloyati hisoblanadi. U uch tomondan turli xil balandlikdagi tog'lardan o'ralgan bo'lib, faqat janub-Amudaryo tomonga ochiq. Viloyat maydonining 70 foizdan ko'prog'i tog'li hududlardan tashkil topgan (demak, "tog'lilik" koeffitsienti 0,70 ga teng). Tabiiy geografiyaning asosiy qonuniyatlaridan biri vertikal, zonallik umumgeografik xususiyatga ega. CHunki, balandlikka ko'tarilgan sari nafaqat harorat, bosim, o'simlik turlari va qoplami o'zgarib boradi; bunday sharoitda yer usti tuzilishining o'zlashtirilganlik darajasi, xo'jaligining rivojlanishi va ixtisoslashuvi, iqtisodiy va demografik sig'imi, aholi va aholi punktlarining joylashuvi, ularning katta-kichikligi, qolaversa, bu

yerda yashovchilarning yurish-turishlari ham farqlanib boradi. Tog'lilar, odatda, didli, mo'ljalli mergan, ekin ekiladigan tekis hududlarni qadrllovchi, sof havo va tiniq, toza zilol suvni istemol qiluvchi sog'lom, baquvvat, chiniqqan, tirishqoq, mehnatkash kishilardir.

II-BOB: TOSHQO'RG'ON QISHLOG'I TABIATI VA UNDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK JIHATLARI

2.1. Toshqo'rg'on qishlog'ida tabiatdan foydalanishning eko-geografik xususiyatlari.

Mamlakatimiz aholisining yarmiga yaqini qishloqlarda istiqomat qilishi hammamizga ma'lum. Keyingi yillarda respublika hukumati tomonidan qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2009 yil "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qilindi va bu bo'yicha alohida davlat dasturi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi.

Ma'lumki, qishloq aholisining asosiy mashg'uloti qishloq xo'jaligini yetishtirish va uni qayta ishlab chiqarishdan iborat. Ona-Vatanimizda mazkur tarmoqni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. "O'zbekiston – qadimdan sug'orma dehqonchilik markazi bo'lib kelgan".³

Namangan viloyatining CHust tumani tarkibiga kiruvchi har bir qishloqning o'zining tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy xususiyatlari bilan biror bir xo'jalikka ixtisoslashuv ko'rsatkichlari orqali mamlakat rivojiga albatta ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda sug'orma dehqonchilik qilinadigan ekin maydonlarining katta qismi adirlar hissasiga to'g'ri keladi. Turli hududlardagi adirlar tabiiy geografik tavsifi, xo'jalik maqsadida foydalanish imkoniyatlari bo'yicha o'zaro farq qiladi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi adirlari muayyan o'ziga xosliklarga ega bo'lib, bu xususiyatlarning deyarli barchasi Namangan viloyatining CHust tumani va uning xududlarida mujassamlashgan. Kichik hududlarni kompleks (tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy) geografik tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlab, ularning yechimi yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi paytda ekologiya va geografiya fani oldida turgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

CHust tumani tabiiy geografik va ekologik o'rni jihatidan adir mintaqasida joylashgan. CHust tumani tarkibiga kiruvchi Toshqo'rg'on qishlog'i, tumanining

³ И.А.Каримов "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари". Тошкент, "Ўзбекистон", 1997. 249-бет.

g'arbiy qismida joylashagan bo'lib, tuman markazidan 7-7,5 km. uzoqlikda joylashagan.

Toshqo'rg'on qishlog'i Karnon qishloq fuqarolar yig'iniga qarashli bo'lib, bu maskan CHust-Olmos yo'lining ikki bekatida joylashagan qadimiy aholi maskani. Unda jami 450 dan ortiq honadon iste'qomat qilib 4 mingdan ortiq axoli yashaydi.

Toshqo'rg'on qishlog'i aslida "Tashqo'rg'on" bo'lib, keyinchalik mahalliy aholi shevasida Toshqo'rg'onga aylangan. CHunki qishloqning G'ovasoy qirg'og'ida o'rnashganligi, uning atrofida xarsan toshlarning seroblighi, eng qadimgi aholi o'z imorat va xoandonlarini toshdan qurishgani uchun bu maskan "Toshdan qurilgan qo'rg'on" bo'lib "Toshqo'rg'on" atamasi kelib chiqqan.

Toshqo'rg'on qishlog'i CHust shahri bilan bir hil kenglikda joylashgan.

Qishloqning rel'efi, past-balandliklardan tarkib topgan va uning yer yuzasi shimoldan janubga tomon zina shaklida pasayib boradi. Hududning katta qismi dengiz sathidan 500 metrdan yuqorida joylashgan. Toshqo'rg'on qishlog'i asosan, tabiiy geografik va ekologik sharoitiga ko'ra, o'zaro quyidagi mintaqalarda joylashgan ya'ni yarim tekislik va adir mintaqasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Qishloqning janub va janubiy g'arbiy qismlari yarim tekisliklar tashkil etib okean satxidan mutloq balandligi 400-500 metr. Ular hosil bo'lishiga ko'ra, akkumulyativ tekisliklar hisoblanib, allyuvial', prolyuvial', dellyuvial' jinslaridan iborat.

Qishloq hududining yarmidan ko'proq qismi adir mintaqasida joylashib, rel'efi keyingi 60-70 yil ichida antropogen omil ta'siridan keskin o'zgardi. Hududda mavjud soyliklar ham adirlar rel'efining parchalanib ketganligi, va suv ta'siridan hosil bo'ladigan erozion jarayonlarning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Qishloq hududida topilgan foydali qazilma boyliklari jumlasiga turli qurilish materiallari - tosh, qum va shag'allarni kiritish mumkin. Yangi neft konlarini izlab topish va qazib chiqarish hajmini oshirish bo'yicha respublikamiz hukumati tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Toshqo'rg'on qishlog'i iqlimining hosil bo'lishida uning CHust tumani tarkibidagi barcha iqlimiy xususiyatlar xususan, okean va dengizlarning bevosita ta'siridan uzoqligi, atrofi baland tog' bilan o'ralganligi, asosiy radiatsion va tsirkulyatsion jarayonlar iqlim-ekologik sharoitini vujudga keltiradi. Natijada tuman hududida keskin, quruq kontinental iqlim qaror topgan. Ekologik jihatidan cho'l va chala cho'l mintaqalarining holati yaqqol sezilib turadi. Qishloq iqlimi o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishida shimoldan keladigan Arktika havo oqimlari, Markaziy Osiyo hududida hosil bo'ladigan mo''tadil quruq havo oqimi va janub tomondan harakatlanuvchi tropik havo oqimlari ishtirok etadi. Bu havo oqimi o'rnini ko'pincha baland tog' tizmalari to'sib qoladi, lekin 15-20 km. balandlikdagi havo oqimlari qishloq hududiga bemalol kirib keladi hamda asosiy yog'inlarni hosil qiladi. Ayniqsa, kuz va qish oylarida Arktika havo massalarining kirib kelishi haroratning keskin pasayib ketishi, yog'in miqdorining ortishiga sabab bo'ladi. Yoz oylarida mo''tadil quruq havo oqimlari iqlimning quruq va issiq bo'lishini ta'minlaydi.

Qishloqning g janubiy, ya'ni tekislik qismi mo''tadil mintaqaning - cho'l, iqlimi sharoitiga mansub. Vegetatsiya davri 190 kun, bu davrdagi ijobiy harorat yig'indisi 4600-5000°ga teng. Havo haroratining o'rtacha yillik tebranishi 14,5-16°.

Yillik yog'in miqdori 300-310mm.atrofida, yog'ingarchilik asosan qish va bahor oylariga to'g'ri keladi.Yoz oylarida esa 10-15 mm. atrofida yog'in tushadi. Qor qoplaminig o'rtacha qalinligi 10 sm. atrofida bo'lsada, ayrim yillarda 20 sm. dan ham ortadi va qor qoplami 20-40 kun turadi.Bu holat har qaysi yillarda turlichadir. Tekislik mintaqasida may oyidan fevral oyiga qadar g'arbiy (Qo'qon shamoli) va dekabrda fevralga qadar sharqiy shamollar esadi. Ayniqsa, sekundiga 15 metrdan ortiq harakatlanuvchi shamollarning 30 kundan ortiq davom etishi qishloq xo'jaligiga sezilarli zarar keltiradi.

Bug'lanishning yuqori bo'lishi (120-150 mm.) katta hududlarda minerallashgan yer osti suvlarini kapillyarlar orqali katta kuch bilan tuproqning yuqori gorizontallariga tortib chiqaradi hamda sho'rланish jarayonini hosil qiladi.

Bug'lanishning qish oylarida ham (10 mm. atrofida) davom etishi sho'rlanish va ikkilamchi sho'rlanishning oldini olishga qaratilgan agromeliorativ tadbirlar majmuasini amalga oshirishni taqozo qiladi.

Adirlar va adirorti tekisliklari mintaqasida iqlim g'arbdan sharqqa va shimoldan janubga tomon sezilarli darajada o'zgarib boradi. Sutkalik va yillik havo harorati ma'lum darajada tebranib turadi, keskin kontinentallik xususiyati xarakterlidir. Yanvar oyining o'rtacha harorati $-6-8^{\circ}$, minimum $-22-26^{\circ}$, iyul oyining o'rtacha harorati $22-26^{\circ}$. Eng yuqori harorat $43-44^{\circ}$ ga yetadi. Sentyabr-oktyabr oylarida havo harorati pasayadi. Bu mintaqalarda tekisliklarga nisbatan iqlim o'zgarishida toqqa yaqinlik hamda joyning dengiz sathidan balandligi asosiy o'rin tutadi.

O'rtacha va baland tog'lar mintaqasida qish sovuq, yanvar oyining o'rtacha harorati $-3,5-4^{\circ}$, yoz esa ancha salqin, iyul oyining o'rtacha harorati $20-21^{\circ}$ dan oshmaydi.

Relief shakllarining xilma-xilligi, yonbag'irlar ekspozitsiyasining hokim havo massalariga nisbatan joylashuvi dengiz sathidan yuqorilagan sari hamda g'arbdan sharqqa va shimoli sharqqa tomon yog'in miqdori o'zgarib boradi.

Qishloqda bahor oylaridagi yog'in miqdori kuz va qish oylaridagi yog'in miqdoridan ancha ortiq. Yog'ingarchilikning eng yuqori miqdori mart, ba'zan aprel oylariga to'g'ri keladi. Noyabr-mart oylarida qor yog'adi, o'rtacha tog'lar mintaqasida esa oktyabr-aprel, hatto may oylarida ham qor yog'adi. Yomg'ir jala tarzida yog'ishi mumkin: u bir necha minutdan 20-25 minutga qadar davom etadi. Yog'in miqdori birdaniga 10 mm.dan 40 mm.gacha yetadi. Intensivlik darajasi esa 0,10 dan 1,3 mm.gacha tebranadi.

Toshqo'rg'on qishlog'i jala-do'l hodisalari ko'p bo'lishi bilan ajralib turadi. Har yili bot-bot takrorlanib turadigan do'l hodisalari qishloq xo'jaligiga va aholiga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Ob-havoni kuzatish stantsiyalarining ko'p yillik ma'lumotlariga ko'ra, do'l asosan qishloq xo'jalik ekinlarini ekish va undirib olish, bog'lardagi daraxtlar qiyg'os gullagan mart oyi o'rtalari, shuningdek, daraxtlar hosil tukkan, mevalari pishgan yoz oylarida kuzatiladi.


Qadimdan sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanadigan Toshqo'rg'on yer bilan tillashadigan, daradlashadigan xalq hisoblanadi. Ming yillik sug'orma dehqonchilik tajribalari asosida hududda qator sug'orish tarmoqlari, irrigatsiya inshootlari barpo etilgan. Toshqo'rg'on qishlog'i axolisi dehqonchilikni asosan buloq suvlariga tayanib rivojlantirishgan, keyinchalik mazkur suv manbalarini qishloqning kamsuvli qismi, etaklariga olib borish uchun buloq suvlari yig'ilib, to'planib oquvchi ariqqa extiyoj tug'dirgan. SHu tariqa qadimiy "Quvan" arig'i barpo etilib, uning qachon qazilgani noma'lum.

Quvan arig'ini eni 2-3 metr, chuqurligi 1,5-2 km hajmdagi inshoot. CHust tumani uchun suv resurslari katta iqtisodiy ahamiyatga egadir.

1995 yilda Toshqo'rg'on qishlog'iga G'ovasoy daryosidan qazilgan va Og'asaroy ariqlaridan suv olib kelingan.

Qishloq hududining asosiy qismi adirlar bo'lib, ularni och tusli bo'z tuproqlar egallab yotadi. Qishloqda sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarning ko'pi shu mintaqaga to'g'ri keladi. Bu tuproqlarning asosiy xususiyati chirindi qatlamining yupqaligi, miqdorining ozligi, tuproq skeletlik darajasining yuqoriligi, mayin jinslar qatlami 30-50 sm. qalinlikda ekanligi, karbonatlar va gipslarning yuqori qatlamlarda joylashganligi, suv o'tkazuvchanligi va suvga chidamlilik darajasi hamda tuproq eroziyasiga tortilish darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar prolyuvial qatlamlashgan yotqiziqlar ustida yuzaga kelganligi sababli genetik gorizontallari yaxshi ifodalanmagan. CHunonchi, uning eng yuqori 20-25 sm.li haydov qatlami, uning ostida 15-18 sm.li haydov osti qatlami ajratiladi. Ba'zi yerlarning 60-70 sm. chuqurligida chirindiga boy soz qatlam ham uchraydi. Tuproqlarda chirindi miqdori 1.3-1.4 foiz atrofida bo'lib, sizot suvlar minerallashuv darajasiga ko'ra, turli darajada sho'rlangandir.



Och tusli bo'z tuproqlar esa yupqa (15-20 sm.), shag'al ustida hosil bo'lgan chirindisi oz (0,5-0,8 foizgacha), 10-12 sm. CHuqurlikda esa gips joylashgan. Ular bo'z rangli tangasimon va mayda kesaksimon tarkiblidir. Uning ostida 10 sm. qalinlikdagi qatlam bo'z rangli, quyi tomonga dog'lar kamayib boradi. Ular yirik kesaksimon va mustahkam tarkiblidir. Karbonatli qatlam 12-15 sm. dan boshlanganda, tipik bo'z tuproqlardagisi yaxshi ifodalanmaydi. Unga nisbatan gipsli qatlam yaqqol bilinib turadi va 50-70 sm. chuqurlikda.

Bizning fikrimizcha, bunday yerlarda o'zlashtirishning dastlabki yillari chirindi miqdori kamayib borgan, so'ngra agrotexnik tadbirlar oqibatida chirindi miqdori ortgan hamda foydalanishning davom etishi tuproqda karbonatlar va gipsning yuvilishiga, konkrentsiyalarning parchalanishiga olib kelgan. Tuproq kesmasi qalinlashgan va xilma-xil moddalar miqdori ortib, kolloid zarralar ko'paygan. SHunisi xarakterliki, bu tuproqlar tarqalgan yerlarda sug'orish (irrigatsion) eroziyasi ham keng tarqalgan. Adirlar intensiv o'zlashtirilishi

oqibatida tuproqning yuqori unumdorlik qoplami yuvilib, shag'alli qismlari ochilib qolishidan tashqari, suv urib ketgan o'pirilmalar, jarliklar yuzaga kelmoqda. Qishloqda sug'orish eroziyasiga qarshi sug'orish texnikasi va me'yoriga amal qilish, o'q ariqlarni har 20-25 metrdan o'tkazish uning yuvilishiga chidamlilik darajasini oshirish, turli "k-4", "k-9" polimerlardan foydalanish tadbirlari amalga oshirilishi zarur. CHotqol tog' tizmasi dasht hududlarida gilli-chirindili och qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Bu tuproqlarda chimli o'simlik ildizlari ko'p, mayda kesaksimon tarkibli, 40-50 sm. qalinlikka ega zich qatlamdan iborat. Quyiroqda esa och-qo'ng'ir tuproqlar och tusga kirgan, salgina kesaksimon tarkibi kam zichlangan qatlamlardan iborat. Bu tuproqlarda chirindi miqdori 4-6 foizdan iborat bo'lib, aminosilikatlarning quyi qatlamlarga tomon kam yuvilganligi (ayniqsa, al'p va subal'p tog'-o'tloq tuproqlarida kuchli rivojlangan) va podzollanish jarayoni sust rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

CHo'l o'simliklaridan (tekislik) to al'p o'tloqlariga (yuksak tog'lar-betagalik) qadar balandlik mintaqasi qonuniyati bo'yicha tarqalgan o'simlik olami Toshqo'rg'on qishlog'i uchun ham xarakterlidir. Bu qonuniyatlar bo'yicha o'simliklarning tarqalishi K.Zokirov va P.Zokirovalar ishlarida yaxshi yoritilgan. CHo'l o'simliklari qishloq hududining janubigacha tarqalgan. Tuproq gruntining xarakteriga ko'ra, to'qay o'simliklari: qamish, tol, jingul kabi sizot suvlari yer yuziga chiqib yotgan yerlarning o'simliklaridir. Galofitlar sho'rhok va sho'rlangan yerlarda keng tarqalgan bo'lib, ajriq, sho'ralarning turli vakillari, salsola (artemizi) kabilardir. Psamofitlar-qum sezuvchilar: cherkez, qandim, turang'il, saksovul kabilar bilan band. Antropogen ta'sir tufayli hudud keng miqyosda o'zlashgan. Paxta, beda va makkajo'xori asosiy madaniy ekinlar sifatida ekiladi. Ular oralab begona o'tlar-kurmak, qamish, qo'g'a, ituzum, burgan, ajriq va ariq bo'ylarida yalpiz o'sib yotadi. O'zlashtirilmagan joylarda shuvoq, sho'ra va efimer o'simliklari o'sib yotadi. Rel'efning ko'tarilishi bilan sho'ra-boshoqlilar katta maydonlarni egallaydi. Bu o'simliklar qish va bahorda yog'inning ko'p bo'lishi hisobiga o'sadi. Ayniqsa, bahordagi yog'inlar efimerlarning qalin va ko'p o'sishiga olib keladi. Yoz boshlanishi bilan yog'ingarchilik to'xtaydi, havo harorati

ko'tariladi, tuproq namsizlanadi, shag'al qizib ketadi va efimerlar gullab, mevalab, o'z hayotini tugatadi. Ko'p yillik shuvoq va sho'ralar esa to kech kuzgacha o'sib yotadi.

Qishloq hududida hayvonot dunyosining dasht, cho'l mintaqasiga xos vakillari uchraydi. Hayvonlarning aksariyati issiq va quruq iqlimga moslashgan sudralib yuruvchilar, kemiruvchilar, yirtqichlar va qushlar vakillaridir. Insonning xo'jali faoliyati, ya'ni geoekologik muhitning o'zgarishi natijasida hayvonlarning ko'plab turlari ham o'zgarmoqda. Markaziy tekisliklar va adirlarda kalamush, yumronqoziq, dala sichqoni, echkiemar, kaltakesak, tipratikan, cho'l toshbaqasi va ilonlarning ayrim vakillari yashaydi. Deyarli barcha suv havzalarida baliqning bir necha turlari va ondatralar, hamda G'ovasoyda qunduzning ma'lum bir turini uchratish mumkin.

Qishloqda madaniy landshaftlarga eng yaxshi moslashgani qushlardir. Ular bog'lar, ekinzorlar, binolar va boshqa inshotlarga ham in qurib, madaniy biotoplar hosil qilgan. Ayniqsa, ekinzorlardan o'tuvchi simyog'och va baland daraxtlarda laylaklar keng tarqalgan.

Hasharotlarning turlari ham talaygina.

Keyingi yillarda atrof-muhitning zararlanishi oqibatida ko'plab hasharotlar, qushlar, suvlaridagi baliqlar nobud bo'lmoqda. SHu sababli tog'li hududlar hayvonot dunyosini muhofaza qilish ishlarini ilmiy asosda tashkil etish hayotiy zaruratga aylandi.

2.2. Qishloq tabiatidan xo'jalikda foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalari

Toshqo'rg'on qishlog'ida 2015 yil 1 yanvargacha bo'lgan ma'lumotda 4500 ming kishiga yoki tuman aholisining 1,6 foizi, istiqomat qiladi. Mazkur qishloq aholi soni bo'yicha tumandagi mavjud 36 ta qishloqlar orasida 18 o'rinda turadi.

Ma'lumki, mustaqillik davrida mamlakatimiz demografik rivojlanishi uchun o'ziga xos voqe'lik-aholi tabiiy o'sish sur'atining jadal pasayib borishi kuzatilmoqda.

Toshqo'rg'on qishlog'i qishloqlar orasida ya'ni axoli sig'iminin tasniflanishi bo'yicha o'rta axoli punkti yashaydigan xududlar tarkibiga kiradi. SHuni aytish mumkin-ki, qishloq axolisining tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari ortib borishi natijasida qisqa yillar mobaynida katta axoli punkti tarkibiga kirib borishi kuzatiladi.

- katta aholi punkti - aholi soni 3000 dan 5000 gacha kishidan iborat;
- o'rtacha aholi punkti - aholi soni 1000 dan 3000 gacha kishidan iborat;

Qishloq aholisi milliy tarkibi bo'yicha ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bu yerda aholining 99,2% foizi o'zbeklar, qolgan foizi tojiklar, qirg'izlar va boshqa millatlarni tashkil etadi.

Toshqo'rg'on qishlog'i asosan qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan band. Jumladan dehqonchilik qishloq axolisining aksariyat qismi banddir.

Aholi salomatligi – har bir mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlardan biridir. SHu bois, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy jabhalari rivojlanish bosqich yillarida sog'liqni saqlash tizimida juda katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, sog'lom oilani shakllantirish va irsiy kasalliklarga chalinish mumkin bo'lgan holatlarni kamaytirish maqsadida mamlakatimizda turmush qurayotgan shaxslarni nikohdan oldin majburiy ko'rikdan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi.



Sanitariya –texnik holati:

- Ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi : Markazlashgan.

- Kanalizatsiya o'tganligi –mahalliy.
- Isitish tarmog'i mahalliy.
- Yoritilishi: Tabiy va sun'iy.
- Ventilyatsiyasi: Tabiy va sun'iy.

Toshqo'rg'on qishlog'ida hozirgi kunda sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar va malakali tibiyot xodimlarini ortishi, hamda tibiyot asbob uskunalarini kichik hududga kirib kelishi yildan-yilga ortib o'z samrasini bermoqda.

Hududdagi mavjud birgina tuman sog'liqni saqlash birlashmasiga qarashli Toshqo'rg'on QVP misolida ham rivojlanish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin.


Toshqo'rg'on qishloq vrachlik punkti 6018 aholiga xizmat qilib, unda 22 ta malakali vrach va tibbiyot hamshiralari sifatli va birlamchi tibbiy-yordamni ko'rsatadi. O'ziga biriktirilgan hudud aholisiga belgilangan tartibda va imkoniyatlarni inobatga olib, shoshilinch tibbiy xizmat faoliyatida. QVPga "Salomatlik-2" dasturi bo'yicha tibbiy asbob-uskunalar bosqichma-bosqich olib kelib o'rnatilmoqda. Hozirgi kungacha Toshqo'rg'on va Mashhad aholisiga "Salomatlik-2" dasturi bo'yicha umumiy qiymati 3061875.85 so'm, 6 turdagi tibbiy anjomlar va aparaturlar keltirib, o'rnatildi.

Ma'lumki, joyning geoekologik xususiyatlari aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Toshqo'rg'on qishlog'ida boshqa xududlar bilan hamoxang xolda vujudga kelyotgan ekologik muammolarni tahlil qilib ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- Atmosfera havosining ifloslanishi
- Er usti va yerosti suvlarining ifloslanishi
- Er resurslari bilan bog'liq ekologik muammolar (tuproq sho'rlanishi va eroziyasi, unumdor yerlarning hosildorligini pasayishi, cho'llanish va boshqalar)

CHUST TUMANI HARITASI



Qishloqda atmosfera havosini ifloslovchi manbalar transport, kichik turdagi maishiy chiqindilarni ochiq xolda yo'l chetlariga chiqarilishi bilan bog'liq. Toshqo'rg'on qishlog'ini CHust tumani markaziga nisbatan yaqin bo'lishi oqibatida atmosferaga chiqarilayotgan is-gazi boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori xolatda seziladi.

Keyingi yillarda transport vositalarini qishloq xududlarida ham yildan-yilga ko'payib borishi kuzatilmoqda. Transport vositalari sonining yildan-yilga ortib borayotganini hisobga olsak, bu muammolar yanada rivojlanishi mumkin.

Atrof-muhit muhofazasi bevosita davlat nazorat inspeksiyalari tomonidan nazorat qilib boriladi. SHuningdek, tabiat yodgorliklari ham qo'riqlanadi. Keyingi yillarda qishloq joylarni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari deyarli barcha xududlarda keng xolda rivojlanib bormoqda. Bu esa kichik xududlarda atmosfera havosini ifloslanishini oldini olishda, axolini kasallikka chalinishiga barham berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Qishloq hududi asosan adirliklardan iborat bo'lib, uning o'rtacha mutloq balandligi 350-400 metr, yer yuzasi shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa tomon pasayib boradi. Bu esa hududda o'ziga xos nozogeografik vaziyatni vujudga keltiradi, ya'ni bunda tumanning yuqori (shimoli-g'arbiy) qismi quyi (janubi-sharqiy) qismiga nisbatan o'zining iqlim, tuproq, suv tarkibi va boshqa jihatlari bilan sezilarli farqlanadi. CHunki, joylarning balandligi dengiz sathiga nisbatan pasayib borgan sari ularda havoning aylanma harakati, yer osti va yer usti suvlarining xususiyatlari ham o'ziga xos tarzda o'zgarib boradi. Ushbu holatlarning esa mazkur hudud aholisi salomatligiga o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy.


Binobarin, aholi salomatligiga sanoatning ma'lum miqdorda ta'siri bo'lsa-da, lekin qishloq aholi salomatligini belgilovchi bosh mezonlardan biri, bu – qishloq xo'jaligidir. Unda band aholining asosiy qismi paxta, g'alla va sabzavotchilik bilan shug'ullanadi. Bu esa ular orasida ayni shu soha bilan uzviy bog'liq bo'lgan xastaliklarni keltirib chiqaradi.

Qishloqda kishilar turmush darajasi va aholi salomatligini yaxshilash, avvalo mamlakatimiz rahbariyati tomonidan belgilangan tub ijtimoiy-iqtisodiy

o'zgarishlarni amalga oshirish, xalq xo'jaligini zamonaviy talab hamda ehtiyoj doirasida rivojlantirish va hududiy tashkil etish, ekologik muhit musaffoligini ta'minlash kabi masalalar bilan chambarchas bog'liq.

Toshqo'rg'on qishlog'i yer fondi o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lib, qishloqning jami yer maydoni 2329,13 ga tashkil etib, shundan; ekin ekiladigan maydon 922,5 ga. ekilmaydigan maydon esa 1407 ga ega. Qishloqda jami ko'p yillik darahzorlar 310,8 ga., bog'lar 274,7 ga, o'tloq yaylovlar esa 228,3 gektarni tashkil etadi.

2015 yilda qishloq xo'jaligida ekiladigan ekin turlaridan paxta 325 gektar, g'alla 495 gektar, boshqa ekinlar esa 102 ga.ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2016 yil paxta uchun 345 ga, g'allaga 495 ga, boshqa ekinlarga esa 82 ga yer maydonlari rejalashtirilgan.



Toshqo'rg'on qishlog'i dehqon fermer xo'jaliklari tomonidan 2015 yilda yetkazib berilgan sabzavot ekinlari

Jadval 1

Ekin turi	Ekin maydoni,ga	Tonna
Kartoshka	46,6	852,1
Piyozi	9,6	225,6
Sabzi	9,1	227,5
Pomidor	4,5	27
Boshqa ekinlar	1,7	5,9

CHust tumani ziroatchiligida sabzavot-poliz hamda kartoshkachilik muhim o'rin tutadi. Tumanning tabiiy-iqlim sharoitlari, unumdor tuproqlari sabzavot-poliz ekinlari yetishtirish uchun juda qulay. Bu esa, o'z navbatida,

ayrim ekinlardan yil davomida ikki va hatto uch marta hosil olish imkonini beradi. Toshqo'rg'on qishlog'i hududida keng tarqalgan va ko'p yetishtiriladigan sabzavot ekinlaridan: kartoshka, sabzi, piyoz, pomidor, karam, bodring, sarimsoqpiyoz, qalampir, baqlajon, lavlagi, turp, sholg'om, rediska, va boshqalar asosiy ekin sifatida ekiladi. Xususan, Toshqo'rg'on qishlog'ida keyingi yillarda poliz ekinlarini kengroq maydonda ekilishi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ulardan tarvuz, qovun, qovoq va boshqalar ko'proq yetishtirilmoqda, ayniqsa qovunlarning ko'plab, ertapishar, kechpishar navlarini xudud dehqonlari sinab ko'rishmoqda.

Qishloqning dehqonlari avvaldan sabzavot ekinlari yetishtirishga ixtisoslashib kelgan. SHuni alohida ta'kidlash joizki, CHust shahri aholisi uchun sabzavot ekinlarini yetishtirib berishda Toshqo'rg'on qishlog'i alohida o'rin tutuadi. Ular shahar aholisini kundalik zarur qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab-ehtiyojlarini ta'minlashga ixtisoslashgan. Toshqo'rg'on qishlog'ida keyingi yillarda issiqxona xo'jaliklari ham tez rivojlanib bormoqda. Qishloq bo'yicha 1,5 ga maydonda sabzavot ekinlari yetishtirilmoqda. So'nggi davrlarda sabzavotchilikning jadal rivojlanishiga qaramay, uning ekin maydonlari va yalpi hosili ortib borsada, hosildorlikni yuqori deb bo'lmaydi. Ushbu ko'rsatkich 2014 yilda 193,8 ts/ga teng bo'lgan. Bu yillarda sabzavot ekinlari yetishtirish qishloq bo'yicha o'rta hisobda 320-360 tonnadan ortiq xosil ko'rsatkichiga ega bo'lgan. Sabzavot ekinlari hosildorligi xo'jalik toifalari kesimida ham o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Masalan, u qishloq xo'jaligi korxonalarida o'rtacha 168,1 ts/ga, fermer xo'jaliklarida 181,6 ts/ga, dehqon xo'jaliklarida esa 230,7 ts/ga. ni tashkil qiladi. Sabzavotchilikning asosan mavsumiy xarakterga ega ekanligi, uning mahsulotlari ko'proq pishib yetiladigan davr (iyul-sentyabr) bilan aholini ehtiyojlari eng yuqori bo'lgan davrni (mart-aprel) mos kelmasligi ham muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatda, eng avvalo, yopiq gurunda sabzavot ekinlarini yetishtirishni kuchaytirishtalab etiladi. Issiqxona xo'jaliklarini qishloq xududi doirasida rivojlantirishni kuchaytirish, o'z navbatida, aholini qishin-yozin mahsulotlar bilan

ta'minlash imkonini beradi. Lekin qishloqning ayrim xududlaridan to'liq foydalanilmayapti. Toshqo'rg'on qishlog'i tuman sabzavot-polizchiligida kartoshka yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kartoshka aholi iste'molida ham katta o'rin tutadi. Qishloqning janubiy xududlari poliz ekinlariga qulay, ammo sabzavot ekinlariga kam yer ajratilgan. Markaziy mintaqa sabzavot, kartoshkachilik uchun juda qulay. Janubiy xududlar sabzavot ekinlari yetishtirish muddatini qisqa va ertaligi bilan hamda boshqa hududlarni sabzavotlarga bo'lgan talabini qondirish nuqtai nazaridan katta imkoniyatlarga ega. CHust tumani sabzavotchiligi va kartoshkachiligida tog'li zona bo'lganligi katta ahamiyat kasb etadi. CHunki, Toshqo'rg'on qishlog'i ham ajratish maqsadga muvofiq. CHunki, kartoshka asosan tog'li rayonlar o'simligi hisoblanadi, binobarin uni bu mintaqalarda rivojlantirish qulay imkoniyatlarga ega. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Toshqo'rg'on sabzavot-polizchilik, kartoshkachilikning hududiy tashkil etilishi, rivojlanishiga ko'ra turlicha xususiyatlarga ega. Bu borada qishloqlarning tabiiy-geografik, iqlim, yer-suv salohiyatidan foydalanish va ularning ixtisoslashuvini kuchaytirish, aholining yil mobaynida sabzavot-poliz mahsulotlariga bo'lgan talabini muntazam qondirib borish, tuman portida sabzavot-poliz mahsulotlari ulushini oshirish dolzarb asallardan hisoblanadi. Keyingi yillarda Toshqo'rg'on qishlog'i xo'jaligida ham asosan paxtachilikka ixtisoslashtirilgan bo'lsa, bugungi kunda don mustaqilligi ta'minlash maqsadida bug'doy ekilishi kengaytirilmoqda. Bundan tashqari, qishloqning shimoliy bir qancha xo'jaliklarda bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilik, sabzavotchilik, yem-xashak ekinlari va kartoshkachilik sohalari ham rivojlantirilmoqda. Lekin qishloqning sug'oriladigan yerlarining agromeliorativ holati har yili solinayotgan kimyoviy o'g'itlar, pestitsidlar ta'siridan "karaxt" holga kelmoqdaki, bu yerlar gektar hisobiga solinishi lozim bo'lgan kimyoviy (fosforli 250 kg, azotli 150 kg, kaliyli 75 kg) o'g'itlar solin-ganda, ularni faqat 20-30% o'zlashtirilib, qolgan 70-80% i esa tuproqda o'zlashtirilmasdan qolib ketishi natijasida, yer osti suvlari ham ifloslanib inson slomatligiga katta ta'sir etmoqda.

Toshqo'rg'on MFYda joylashan fermer xo'jaliklarining 2015 yil hosili uchun paxta va boshqa ekinlarini joylashtirilishi to'g'risida ma'lumot

Jadval 2

№	Fermer xo'jaligi nomi	Jami ekin maydoni	Paxta	G'alla	Tuzilgan shartnoma					
					G'alla 2015			Paxta 2015		
					Gek.	TS/ga	tonna	Gek.	TS/ga	tonna
1	Muxammadali rohatalievich	61,6	20,0	35,0	35,0	25,0	87,5	20,0	24	48,0
2	Qahramon 1	62,2	21,1	37,0	37,0	26,3	97,2	21,1	25,1	53,0
3	Toshqo'rg'on oltin zamini	53,8	20,0	36,0	36,0	26,3	94,7	20,0	24	48,0
4	Paxtakor	46,6	23,6	23,0	23,0	25,5	58,7	23,6	21,6	51,0
5	Salima Sotim qizi	49,2	19,4	25,0	25,0	24,5	61,3	19,4	22,7	44,0
6	Xalol mehnat tanga rohat	60,4	30,4	27,0	27,0	27,3	73,7	30,4	23,4	71,0
7	CHust Toshqo'rg'on g'allakori	43,6	20,8	22,8	22,8	27,2	62,0	20,8	22,1	46,0
8	Xolboev Ulug'bek	57,7	21,6	40,0	40,0	28,5	114,0	21,6	25,9	56,0
9	Yashnarber Anvarbek	54,7	24,7	34,0	34,0	27,9	95,0	24,7	24,9	61,5
10	Axror Axmed	31,1	6,1	25,0	25,0	26,5	66,2	6,1	23	14,0
	Toshqo'rg'on MFY	514,5	207,7	304,8	304,8	26,6	810,3	207,7	23,7	492,5

Ayniqsa, so'nggi 15-20 yil davomida tabiiy sho'rlangan va meliorativ holati og'ir yerlarni ko'plab o'zlashtirish hisobiga sho'rlangan yerlar miqdori ortib bormoqda. Buning oqibatida tuproqning asosiy sifat ko'rsatkichi, unumdorligi pasayishi kuzatilmoqda. Tuproq unumdorligini qayta tiklash, tarkibidagi zaharli o'g'itlar ta'sirini yo'qotib borishning qulay yo'llaridan biri organik o'g'itlardan keng ko'lamda foydalanish va almashlab ekishni uzluksiz qo'llashdan iborat.

SHuningdek, qishloqning sug'oriladigan yerlari eroziya tufali ham zararlanadi. Chunki, qishloqning relief xususiyati va joylashgan o'rni eroziyani keltirib chiqaruvchi omillarning rivojlanishiga olib keladi. Bunday jarayonlarni rivojlanishini keltirib chiqaruvchi asosiy omillarga: yog'inning ko'p yog'ishi, nishablikning kattaligi, vaqtincha oqar suvlarning mavjudligi, tuproqning chirindiga kambag'alligi, tuproq xossalari yomonligi, yer yuzasining o'simliklar bilan kam qoplanganligi, ko'p yerlarning sug'orish ta'siriga tortilganligi, sug'orishning agrotexnika qoidalariga rioya qilinmasligi, yaylov, o'tloq va pichanzorlardan oqilona foydalanmaslik, almashlab ekishni to'g'ri tashkil etmaslik, oqava suvlarni noto'g'ri tashlash kabilar sabab bo'ladi.

SHu bilan birga Toshqo'rg'on qishlog'ida yaylov eroziyasi ham kuzatilib, bu yaylovlarda chorva hayvonlari noto'g'ri boqilishi oqibatida ularda o'simlik turlarining yo'qolib, tuproq yuzasi ochilib qolishi natijasida atmosfera yog'inlari, xususan, sel va jala hodisalari ta'sirida tuproqning yuvilishiga olib kelmoqda. Deflyatsiyaga esa cho'l zonasidagi yerlarni ko'p o'zlashtirilishi, shamolning yo'nalish tezligiga kartalarni moslab loyihalamaslik, tuproqlar yengil mexanik tarkibli ekanligi, tuproqlarni mexanik, kimyoviy, biologik xossalari yomonligi, chirindi miqdorining ozligi, pushta va jo'yaklarni uzunligi, dala maydonlarida shamol tezligini kamaytiruvchi ihotazorlarni barpo etmaslik, tuproq tiplari va xossalari qarang qishloq xo'jalik ekinlarini ekmaslik, haydash sifatini buzilishi va ekinlarni ekishda shamol yo'nalishini hisobga olmaslik kabilar sababdir.

Toshqo'rg'on qishlog'ining adir mintaqasini intensiv o'zlashtirilishi va sug'orishning agrotexnika qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida irrigatsiya eroziyasi rivojlangan. Bunga dehqonchilik qilinayotgan adirlarida eroziya ta'sirida tuproqning ustki mayin jinsli qatlami yuvilib ketib, shag'alli qatlam ochilib, bu

yerlar dehqonchilikka mutloqo yaroqsiz bo'lib qolmoqda. Irrigatsiya eroziyasi tuproq unumdorligini pasaytiradi, dehqonchilik ishlarini o'z vaqtida o'tkazishga jiddiy to'sqinlik qiladi, paxta hosilini va sifatini kamaytiradi, solingan mineral o'g'itlarni yuvilib ketishiga olib keladi.

Bugungi kunda Toshqo'rg'on qishlog'ida ochiq suv havzalariga qishloq xo'jalik, transport va maishiy xizmat sohalaridan tozalanmagan chiqindilarni oqava suvlarga tushishi natijasida oqar suv manbalari turli darajada ifloslanmoqda. Ochiq suv havzalariga tushayotgan oqava suvlarning aksariyati, mineral moddalar bilan ifloslangan oqava suvlardir. Ular tarkibi tuzlar, kislotalar, ishqorlar, loy, qum va boshqa mineral moddalar bilan to'yingan bo'ladi. Xususan, qishloq xo'jaligi sug'orish ishlari oqibatida undan chiqayotgan oqava suvlar maxalliy axoli xududidan o'tishi hamda turli xil kimyoviy o'g'itlarga to'yingan suvlarni axoli iste'molida foydalanishi natijasida inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi salbiy holatlarni oldini olish va bartaraf etish borasida tumanda ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

SHu bilan birga, hududlarda suv rejimini tartibga solish, hayvonot va o'simlik dunyosini qayta tiklash, o'sib borayotgan havf-xatarning oldini olish maqsadida turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

“Suv ob'ektlarini sohil bo'ylarida bug'lanishi, ifloslanishi va kamayib ketishini oldini olish, ularning maqbul suv rejimi va tegishli holatini saqlab turishga mo'ljallangan suvni muhofaza qilish tegralari va qirg'oq bo'yi mintaqalari ajratiladi” (“Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 17-modda).

Olib borilgan ilmiy izlanishlar (A.Nazarov, 2010-2012) shuni ko'rsatadiki, paxta bilan band bo'lgan maydonga sarflangan suvning taxminan 54 foizi bug'lanib ketmoqda. Agarda, sug'orishda tuproq suv rejimini hisobga olgan holda va suvdan unumli foydalanish (tuproq ostidan sug'orish) yo'li bilan har bir gektar paxta maydonida bir marta sug'orishni kamaytira olinsa, paxta maydonlarini sug'orishda 190 ming m³ suvni tejash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari

viloyatning tog'oldi hududlarida ekinlarni sug'orishda tejamli, zamonaviy va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish lozim.

2.3. Qishloqda tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning kelajak istiqbollari

Kishilik jamiyati tabiiy borliqning bir qismi bo'lib, uning mavjudligi va rivojlanishi tabiatning inson ongiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv qonuniyatlariga ko'p jihatdan bog'liq. Kishilar butun hayoti mobaynida tabiatda yashaydi va o'ziga kerakli barcha narsalarni tabiatdan oladi. Odam foydalanadigan va iste'mol qiladigan hamma narsa tabiat ne'mati bilan inson mehnati mahsulidir. Inson hamma narsani tabiatdan o'z mehnati orqali oladi. Mana shu mehnati bilan u tabiatga ta'sir ko'rsatadi. Insonning tabiatga ta'siri ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Bu inson mehnatining qanday tashkil etilishi va amalga oshirilishiga bog'liq, ya'ni inson o'z mehnati bilan tabiatga ta'sir etayotganda tabiiy geografik qonuniyatlarni hisobga olishiga bevosita bog'likdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab Vatanimiz tinchligi, gullab yashnashi va xalqimiz farovonligiga erishish yo'lida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish va bunyodkorlik strategiyasi izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi, mustaqil O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishi tizimi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, kuchli ijtimoiy siyosat natijasida aholining real daromadlari va farovonligi uzluksiz oshib bormoqda. Mohiyati va mazmuni jihatidan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan ta'lim va maorif, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va madaniyat tizimlari yaratildi. Hayotimizga Vatan taqdiri haqida qayg'uradigan, mamlakatning buguni, kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalangan, zamonaviy demokratik jamiyat qurish, mamlakatni modernizatsiyalash yo'lidagi keng miqyosli vazifalarni amalda bajarishga qodir bo'lgan, mustaqil hamda zamonaviy fikrlovchi yangi kadrlar kirib kelmoqda.

Mamlakatimizning taraqqiyot va demokratiya yo'lidan izchil borishi O'zbekistonda mavjud bo'lgan boy tabiiy resurslarga tayanadi. Mustaqil taraqqiyotning ilk kunlaridanoq ulardan oqilona foydalanish va kelgusi avlod uchun sof atrof tabiiy muhitni asrab avaylash borasida yo'nalishlar belgilandi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning har bir kichik xududlarida atrof-muhit musaffoligini ta'minlash eng asosiy masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, kelgusi avlodga nafaqat boy madaniy merosimizni asrab avaylagan xolda qoldirish, balki, tabiiy boyliklarda ularni xam o'z ulushi va haqqi borligini prezidentimiz tomonidan ko'p ma'ruzalarida eshitirilgan. Ijtimoiy geografik holat ko'p jihatdan joylarning ekologik xususiyatlariga bog'liq. Geoekologik vaziyat esa aholi salomatligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan ichimlik suvi, uning fizik-kimyoviy tarkibi, sifati, atmosfera havosi, shamol, ovqatlanish rejimi va ratsioni, joylarning sanitar-gigienik holatlari ham tahlil va tadqiq qilinadi. Qishloq hududlari ekologiyasi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omil asosan, qishloq xo'jaligida har xil ximikatlar, gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish, tuproq erroziyasi va sho'rlanishi, chiqindilar, chorva fermalari, tovuq fabrikalari va boshqa mahalliy xususiyatlar bilan bog'lik. Tashqi omil esa chetdan keluvchi iflos havo, suv, transchegaraviy holatlar negizida yuzaga keladi. Qishloq, odatda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi. SHaharlarning ko'p funktsiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotining ko'p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanlagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi rolb o'ynashini ta'minlab beradi.

CHust tumani Toshqo'rg'on qishlog'ida ham atrof-muhitni asrab avaylash va tabiat in'om etgan resurslardan tejab tergab foydalanish maqsadida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib yo'lga qo'yilmoqda. E'tiborli jihati yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib qishloqda tabitidan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha quyidagi chora tadbirlar belgilanishi lozim.

1. Qishloqda mavjud bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosining genofondiga salbiy ta'sir etmaslik, biologik xilma-xillikning saqlash va qisqarishiga yo'l qo'ymaslik;
2. Sanoat va boshqa tur chiqindilarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va kam chiqindili texnologiyalarni qishloq xududiga kiritish va demoekologik vaziyatni tartibga solish;
3. Sog'lom va musaffo atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlashni amalga oshirish bo'yicha maktabgacha ta'lim va o'rta ta'lim tizimlari, maxallalayotgan barcha islohotlarning o'zagini tashkil etgan zamonaviy O'zbekiston uchun zarur bo'lgan atrof tabiiy muhitni asrab avaylashni va uni sog'lomlashtirish va boshqalar.

Qishloq joylarning birlamchi ijtimoiy vazifalaridan biri qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishdan iborat. Bu esa qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini avvalroq ilmiy o'rganilishiga asos bo'ladi. Ammo, shunga qaramay, qishloq joylarning asosiy ijtimoiy mohiyatini faqatgina, qishloq xo'jaligi yoki qishloq aholisi bilangina tushuntirish ham to'la ma'no kasb etmaydi. Buning uchun ularni tabiiy, ijtimoiy – iqtisodiy, demografik va hatto ekologik xususiyatlarini ham to'la qamrab olish kerak. Bularning barchasini o'zida mujassam etgan tom ma'nodagi ilmiy tadqiqotlar bugungi kun talabiga javob bera oladi. Toshqo'rg'on qishlog'ida tabiatni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi asosiy vazifalarni bajarish lozim;

1. **Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qisman uni qayta ishlashni joriy etish.** Ushbu vazifa boshqalarga ko'ra ko'proq qishloq joylar uchun xosligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi yerlari, o'rmon xo'jaligi va yog'och tayyorlash, ovchilik, baliqchilik kabi tarmoqlar asosan qishloq joylarda mujassamlashgan.

Qishloq joylar agrosanoat majmuasiga kiruvchi qayta ishlash sanoatini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Toshqo'rg'on qishlog'ida yetishtirilgan turli xildagi sabzavotlarni qayta ishlar, xususan maxalliy axoli tomorqasida yetkazilgan ekin xosillaridan foydalanish. Masalan, bu joylarda bevosita xom ashyo bazasiga

yaqin meva konserva, vino zavodlarini qurish maqsadga muvofiqdir. Agar paxta tozalash zavodi va u bilan bog'liq bo'lgan yog' oluvchi korxonalarni o'zaro yaqin joyda o'rmashtirilsa, hududiy ishlab chiqarish majmuasining oddiy shakli vujudga keladi va u katta iqtisodiy samara beradi.

SHu bilan birga, qishloqda tog' – kon va qurilish materiallari sanoatini ham ko'rib chiqish mumkin. Sababi katta zahiraga ega shag'al va qum resurslari qurilish materiallari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.. Ushbu korxonalarining joylanishi va rivojlanishi, albatta, ekologik masalalar bilan uyg'unlashtirilgan holda tahlil qilinishi lozim. Zero, qishloq joylarning ekologik holati qishloq xo'jaligida ishlatiladigan ximikatlar, yer osti suvlarining ko'tarilishi va yerlarning sho'rlanishi bilangina emas, balki shahar chiqindilarini ko'mish yoki tashlash bilan ham yomonlashib bormoqda. SHu bois qishloq ekologiyasini o'rganish dolzarb mavzulardandir.

2. **Toshqo'rg'on qishlog'ini rekreatsiya funksiyasi** rivojlantirish- bunda asosan qishloqning katta Namangan-Toshkent magistral yo'li yoqasiga yaqinligi hisobga olingan xolda, qishloqning eng chiroyli tabiiy landshaftlarga boy xududlarini yo'lovchilar yoki shaharliklar uchun dam olish maskanlari sifatida foydalansa bo'ladi. Hozirda xo'lalilikning muhim tarmog'iga aylanib borayotgan rekreatsiya xizmatining ko'plab muassasalari (dam olish zonolari, uylari, bolalar lagerlari, turbazalar, sanatoriyalar va pansionatlar) qishloq joylarida vujudga keltirish va shakllantirish mumkin.
3. Qishloqda ayrim **“shaharlik” xo'jalik tarmoqlari** ham joylashtirish lozim. Ular jumlasiga, qazib oluvchi (qurilish materiallari qazib oluvchi kar'erlar, konlar) va ishlovchi sanoatning ayrim kichik korxonalari kiradi. Bunday korxonalar o'z hajmlarining kichikligi sababli shahar hosil qilishga kichiklik qiladilar.
4. **Toshqo'rg'on qishlog'i tabiatiga mos bo'lgan o'rmon xo'jaligini rivojlantirish va yog'och tayyorlash** ham qishloq joylariga xos funktsiyalardan biridir.

5. Qishloq joylarning tabiatni muhofaza qiluvchi funksiyasida S.A.

Kovalyov ikki turini ajratadi:

1. Har bir xudud o'zining muxofaza etiladigan hududlariga ega bo'lishi lozim. SHu asosda qishloq tabiatini muhofaza qiluvchi tadbirlar (kichik qo'riqxonalar, kichik zakazniklar, kichik turdagi milliy parklar); shakllantirish albatta ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda.
 2. Bizga ma'lumki, kshp qishloqlar shahar chiqitlari "qabristoni" sifatida e'tirof etiladi. Demak qishloqni turli xildagi chiqindilar xoli bo'lishini ta'minlash lozim va kerak bo'lsa yo'l qo'ymaslik.
6. Qishloqda fermer xshjaliklari bilan hamkorlikda **balıqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish**da ham katta e'tiborni qaratish lozim..
7. SHuningdek, T.I. Zaslavskaya ularning "**tarixiy – madaniy**" funksiyasini ham ajratadi (1978, s. 30). Bunda u qishloq aholisining tabiiy takror barpo bo'lishi va uning madaniy – ma'naviy ehtiyojlarini qondirilishini ta'kidlagan.

Qishloq joylarning jamiyatda tutgan o'rni, roli va ahamiyati ularning bajaradigan vazifalardan ham ayon bo'ladi. Yuqorida ularning tashqi vazifalari aytib o'tildi, xolos. SHunga qaramay, ular turli – tuman va bir - biridan farqlanadi. Ularni o'zaro bog'lovchi, uyg'un holda rivojlanishini ta'minlovchi hududiy birikma esa - qishloq joylardir.

Mamlakatimizda olib borilgan talaygina ilmiy tadqiqotlar bevosita qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lib, qishloq joylariga umumiy ta'rif berilgan xolos. Yoki qishloq xo'jaligi yutuqlari "soyasida" qolib ketgan. Qishloq joylarini o'rganish uncha "Omadi kelmagan" (professor A.S.Soliev iborasi) sohaligi bugungi kunda barcha ilm ahliga ayon bo'lmoqda. Bugungi kunda qishloq joylarini o'rganishda regional tafovutlar, xususiyatlar va qonuniyatlarga katta e'tibor qaratilmog'i lozim. CHust tumani qishloq joylarini vujudga kelishida qator omillarning ta'siri bo'lgan. Jumladan,

- iqlimning keskin kontinentalligi ;
- yerlarning holati;

- tabiiy oqar suv manbalarining qanday xolatdaliği;
- o'tmish tarixida turli bosqinlarning bo'lganligi, qishloqlarning kelib chiqishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bugungi kunda tuman qishloq joylarini o'rganishda tabiiy, iqtisodiy omillarning kompleks ta'sirini uyg'unlashtirib olib borish zarurdir.

Hozirgi kunda tuman qishloqlarini yaxshilash, aholi turmush darajasini ko'tarish borasida ko'pgina chora – tadbirlar amalga oshirilib kelinyapti. SHuningdek, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari maishiy xizmat sohasiga bo'lgan e'tibor ham ortib bormoqda. Ammo, qayd qilish joizki, shu kungacha amalga oshirilib kelayotgan chora – tadbirlar bilan bir qatorda, qator kamchilik va muammolar ham mavjud:

- Qishloq joylari arxitekturasi ko'p joylarda talab darajasida emas. SHaxsiy uylarning qurilish tartibi, tashqi qiyofasi, rangi, orastaligi ayni joy tabiati ijtimoiy – iqtisodiy muhitiga mos bo'lmog'i lozim;
- Uy – uchun shaxsiy tomorqa yerlari ajratish, ularda qurilayotgan qurilishlarni va tashkil qilinayotgan infratuzilma tarmoqlarii boshqarish yo'lga qo'yilmagan;
- Tomorqa yerlarini o'z vaqtida suv bilan ta'minlash, ekinlarni tanlash, ortiqcha mahsulotlarni sotish borasida muammolar mavjud;
- Qishloq yerlarini obodonlashtirish, ko'kalamlashtirish borasida qator muammolar mavjud. Ayniqsa mevali daraxtlar turi va maydonining kamayib ketganligi salbiy holatdir;
- Qishloq joylarida ichimlik suvi, tibbiy xizmat yo'l qurilishi, dam olish shaxobchalarini tashkil qilish borasida muammolar mavjud
- SHaxsiy tomorqa yerlaridan samarali foydalanishda qator kamchiliklar mavjud. Tomorqa yerlariga ekiladigan kundalik zarur ekin turlari, mevali daraxt turlarini ayni joy tabiatiga xos holda tanlash, ularning ko'lamini belgilash, iste'moldan ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlarini zahiraga saqlash yoki oqilona bartaraf qilish borasida muammolar bor;

- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha kichik sanoat korxonalarini tashkil qilish davr talabidir. SHunday qilinganda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini behuda nobud bo'lishidan saqlash, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash birmuncha yaxshilangan bo'lur edi;
- Uy – ro'zg'or va boshqa chiqindilarni oqilona bartaraf qilish to'la yo'lga qo'yilmagan;

Inson tabiatning bir bo'lagi, uning ajralmas qismidir. U paydo bo'lgandan buyon tabiatdan o'z ehtiyojlarini qondirib keladi. Bu esa o'z navbatida tabiatga ta'sir orqali amalga oshiriladi. Insonning tabiatga ta'sir kuchi esa kun sayin ortib bormoqda. Bu birinchi navbatda aholi sonining ko'payishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan insonning tabiatga ta'sir kuchi, qudratli texnika tufayli tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, qishloq landshaftlari ham asrlar davomida inson tomonidan yaratilgan antropogen – madaniy landshaftlarning bir turi hisoblanadi. Antropogen landshaftlar o'zgartirilganlik darajasiga ko'ra xilma – xildir. Ularni turkumlash bo'yicha ham qator fikr, munosabatlar mavjud. Ko'pchilik geograf, ayniqsa landshaftshunoslar antropogen landshaftlar tobora antropogenlashib, oxir – oqibat “madaniy” landshaftlarga aylanadi, deb e'tirof qiladilar. Haqiqatda ham shunday. Inson tomonidan yaratilgan madaniy landshaftlar yillar sayin takomillashib boradi, latofatli, salobatli bo'lib, zamon talabiga mos chiroy, ko'rinishga ega bo'ladi, lekin ular qanchalik madaniylashmasin ayni joy tabiati bag'rida vujudga keladi.

Tabiat va jamiyat munosabatlarida shu narsa ravshanki, kishilarning turmush darjasi, madaniyati o'sib borgan sari madaniy landshaftlarning madaniylik darajasi ham ortib boradi. “Madaniy landshaftlarni madaniyatli odamlar yaratadi”, desak o'rinli bo'ladi. Tabiatni o'zgartirishdan pirovard maqsad madaniy landshaftlar barpo qilish ekan, uning ilmiy asoslarini yaratish geograf, landshaftshunoslarning bevosita vazifasidir.

HULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda mamlakatimizning har bir kichik xududlarida atrof-muhit musaffoligini ta'minlash eng asosiy masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, kelgusi avlodga nafaqat boy madaniy merosimizni asrab avaylagan xolda qoldirish, balki, tabiiy boyliklarda ularni xam o'z ulushi va haqqi borligini prezidentimiz tomonidan ko'p ma'ruzalarida eshitirilgan.

Qishloq, odatda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi. SHaharlarning ko'p funktsiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotining ko'p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchunimkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanlagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi roly o'ynashini ta'minlab beradi.

Namangan viloyatining CHust tumani tarkibiga kiruvchi har bir qishloqning o'zining tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy xususiyatlari bilan biror bir xo'jalikka ixtisoslashuv ko'rsatkichlari orqali mamlakat rivojiga albatta ta'sir ko'rsatadi.

CHust tumani Toshqo'rg'on qishlog'ida ham atrof-muhitni asrab avaylash va tabiat in'om etgan resurslardan tejab tergab foydalanish maqsadida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib yo'lga qo'yilmoqda.

Bugun ushbu tadqiqot ishim davomida o'zim yashayotgan Toshqo'rg'on qishlog'i ekologiyasi har tomonlama o'rganishga harakat qildim va qishlog'im tabiatini asrab avaylash bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan bir necha taklif va tavsiyalar berishga harakat qildim.

Qishloqda tabiatidan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha quyidagi chora tadbirlar belgilanishi lozim deb topdim.

1. Qishloqda mavjud bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosining genofondiga salbiy ta'sir etmaslik, biologik xilma-xillikning saqlash va qisqarishiga yo'l qo'ymaslik;

2. Sanoat va boshqa tur chiqindilarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va kam chiqindili texnologiyalarni qishloq xududiga kiritish va demoeologik vaziyatni tartibga solish;
3. Sog'lom va musaffo atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlashni amalga oshirish bo'yicha maktabgacha ta'lim va o'rta ta'lim tizimlari yoshlarni ekologik madaniyatini oshirish bo'yicha turli tadbirlar shakllantirish;
4. Qishloq ichimlik suvlaridan samarali foydalanish mehanizmlarini ishlab chiqish;
5. Bo'sh yotgan ya'ni foydalaiilmayotgan yerlardan xo'jalikda maqsadli foydalanish rejalarini ishlab chiqish;
6. Er resusrlaridan foydalanishda sustkashlikka yo'l qo'ymaslik va boshqalar.

Bundan tashqari Toshqo'rg'on qishlog'ida ijtimoiy ekologik jihatdan e'tibor qaratiladigan jihatlariga quyidagilar;

- Qishloq joylari arxitekturasi ko'p joylarda talab darajasida emas. SHaxsiy uylarning qurilish tartibi, tashqi qiyofasi, rangi, orastaligi ayni joy tabiati ijtimoiy – iqtisodiy muhitiga mos bo'lmog'i lozim;
- Uy – uchun shaxsiy tomorqa yerlari ajratish, ularda qurilayotgan qurilishlarni va tashkil qilinayotgan infratuzilma tarmoqlarii boshqarish yo'lga qo'yilmagan;
- Tomorqa yerlarini o'z vaqtida suv bilan ta'minlash, ekinlarni tanlash, ortiqcha mahsulotlarni sotish borasida muammolar mavjud;
- Qishloq yerlarini obodonlashtirish, ko'kalamlashtirish borasida qator muammolar mavjud. Ayniqsa mevali daraxtlar turi va maydonining kamayib ketganligi salbiy holatdir;
- Qishloq joylarida ichimlik suvi, tibbiy xizmat yo'l qurilishi, dam olish shaxobchalarini tashkil qilish borasida muammolar mavjud
- SHaxsiy tomorqa yerlaridan samarali foydalanishda qator kamchiliklar mavjud. Tomorqa yerlariga ekiladigan kundalik zarur ekin turlari, mevali

daraxt turlarini ayni joy tabiatiga xos holda tanlash, ularning ko'lamini belgilash, iste'moldan ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlarini zahiraga saqlash yoki oqilona bartaraf qilish borasida muammolar bor;

- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha kichik sanoat korxonalarini tashkil qilish davr talabidir. SHunday qilinganda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini behuda nobud bo'lishidan saqlash, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash birmuncha yaxshilangan bo'lur edi;
- Uy – ro'zg'or va boshqa chiqindilarni oqilona bartaraf qilish to'la yo'lga qo'yilmagan va boshqalar;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsiz-likka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:“O‘zbekiston”, 1997. 249-bet.
2. I.A.Karimov. “Jahon moliyaviy-iktisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. - T.: "O‘zbekiston", 2009.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrdaagi “2011-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PQ-1442 sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdaagi "Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida"gi PF-3226-sonli farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdaagi "2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to‘g‘risida"gi PF-3342-son farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 14 avgustdaagi “Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 338-sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdaagi “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlari ma‘muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 68-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2010 yil 16 martdaagi “Fermer xo‘jaliklari tasarrufidaagi yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish yakunlari to‘g‘risida”gi 47-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yilda 18 maydaagi “Xalq ta‘limi muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 139-sonli qarori.
10. CHust tuman hokimining 2005 yil 31 dekabrdaagi “Ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini sifatli tayyorlash va ular mehnatidan samarali foydalanishning

2006-2010 yillarga mo'ljallangan tuman hududiy dasturi. 354-sonli qarori.

11. O.Abdullaev. Namangan viloyati. (tabiati, aholisi, xo'jaligi) Namangan: "Namangan" nashriyoti, 1995, 35 b.

12. O. Aliboev. "Namangan haqiqati". "Istiqbolli korxonalar" 2009.17.06. 49. (18525) 1 b.

13. M.Inomxonov. "Namangan haqiqati". "CHustlik chevarlar". 2008.31.05. 45. (18417) 3b.

14. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. - T.: O'qituvchi, 1991. -254 b.

15. Bobur Z.M. Baburnoma. -T., 1989. 5-20 b.

16. Boymirzaev K.M. Farg'ona vodiysining vodiya landshaftlari va ularni muhofaza qilish va Выделение и исследование природных синтетических веществ, а также некоторые проблемы науки и экологии. -Namangan, 1994. -S. 69-73

17. Boymirzaev K.M., Nazarov A.A. Farg'ona vodiysi landshaftlaridan foydalanishning matematik modellashtirish usullari va O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy siyosati: muammolar va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1-qism.- Namangan, 2001. 30-36 b.

18. Boymirzaev K.M., Nazarov A.A. Farg'ona vodiysining landshaft-ekologik muammolari va ularni qulaylashtirish masalalari va O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 22-jild. . -T., 2002. 33-35 b.

19. Jumaxonov. SH. Aholi qo'rg'onlari va geoekologik muammolar. Farg'ona vodiysining geoekologik holati, tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish masalalari. O'zbekiston Respublikasi regional ilmiy-amaliy anjuman materiallari. I-qism.- Farg'ona, 1995. 76-77 b.

20. Zokirov T. Sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish. -T., 1986. -56 b.

21. B.Kamolov. "CHust tumanida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi". O'zbekiston Geografiya Jamiyati axborotnomasi №38-son .Toshkent, 2011,88-91 b.

22. B.Kamolov. "CHust tumanining demografik vaziyati" Geografiya: tarix, nazariya, metodlar, amaliyot. Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshket, 2010,179-181 b.

23. B.Kamolov. “Sog’liqni saqlash tizimidagi islohotlarning amalga oshirilishi (CHust tumani misolida)” Zamonaviy geografiya va uning rivojlanish istiqbollari. Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Toshkent, 2011, 161-164 b.

24. B.Kamolov. “CHust tumani aholisi hududiy joylashuvini ayrim jihatlari”. Namangan davlat universiteti Ilmiy axboroti. №2-son, Namangan, 2011, 94-98 b.

25. “Namangan viloyatida faoliyat ko’rsatayotgan qo’shma korxonalar”. Namangan viloyat hokimligining iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi. Namangan. 1999. -68 b.

26. B.Yusupov. Namangan viloyati fermerlarining o’quv-seminarlariga bag’ishlab qilgan ma’ruzasi. Namangan. 2013.05.01.

27. Nazarov A.A. Namangan viloyatida tabiiy resurslardan foydalanish va uning iqtisodiy mexanizmlari. O’zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 22-jild. - T., 2002. 37-38 b.

28. Namangan viloyati «Tabiatni muhofaza qilish» qo’zmitasi materiallari. Namangan, 2000.

29. Namangan viloyati yer resurslari boshqarmasi materiallari. Namangan, 2001.

30. Namangan viloyati ekologiyasi. -T.: Universitet, 1996. -68 b.

31. Nigmatov A.N. Ovrjnaya eroziya i texnogenno-narushenno’ze zemli Uzbekistana. -T.: TashGU, 1996. -123 s.

Internet saytlari

www.uznature.uz—O’zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo’mitasi sayti.

www.un.org/esa/sustdev/—Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.

www.unesco.org—BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo’yicha tashkiloti sayti.

www.unep.org—BMTning atrof-muhit bo’yicha dasturi sayti.

www.undp.org—BMTning rivojlanish dasturi sayti.

www.unese.org/env/esd/—BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti

www.worldresources.org –Jahon tabiiy resurslar sayti.
www.unfra.org –BMTning aholishunoslik dasturi sayti.
www.who.org – Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining sayti.
www.biodiv.org –Biologik xilma-xillik bo'yicha